2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 217 (1543), 2025-yil 23-oktabr, payshanba

www.yuz.uz  yuz.uznews  yuz_official  yuz.uz_news

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI TASHRIF BILAN BRYUSSELDA BO‘LADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayenning taklifiga binoan 23-24-oktabr kunlari rasmiy tashrif bilan Bryussel shahrida bo‘ladi.**

Tashrif dasturiga muvofiq, Yevropa Ittifoqi poytaxtida ushbu birlashmaning asosiy institutlari rahbarlari bilan ikki tomonlama muzokaralar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Ko‘p qirrali munosabatlarni joriy yil aprel oyida Samarqand shahrida o‘tgan oliy darajadagi uchrashuvda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada rivojlantirish va kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi.

Savdo-iqtisodiyot, investitsiya-moliya, innovatsiya, energetika, transport-kommunikatsiya, fan-ta’lim va boshqa ustuvor sohalarda amaliy hamkorlik bo‘yicha aniq loyiha hamda dasturlarni ilgari surish e’tibor markazida bo‘ladi.

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolanishi ko‘zda tutilgan.

Tashrif doirasida O‘zbekiston yetakchisi Belgiya rahbariyati bilan uchrashuv o‘tkazadi, texnologik va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma rejalarni jadallashtirish maqsadida Yevropaning yetakchi kompaniya va banklari rahbarlarini qabul qiladi.

**O‘zA**

## O‘ZBEKISTON YIRIK AVIATSIYA XABIGA AYLANADI

**Mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar soni har oy bir millionni tashkil etayotgani va bu hozircha O‘zbekiston tarixida rekord ko‘rsatkich ekani e’tiborga molik. Ayni paytda ko‘cha-ko‘yda turli tilda so‘zlashib, yon-atrofga hayrat bilan boqayotgan xorijliklarga ko‘zingiz tushadi.**

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, shu yilning o‘tgan to‘qqiz oyida mamlakatimizga 8,6 milliondan ortiq xorijlik sayyoh kelgan. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 112,5 foiz ko‘p degani. Jumladan, shu yil aprelidan buyon O‘zbekiston har oyda 1 milliondan ortiq chet ellik turistni qabul qilmoqda.

*Davomi 2-betda*

## BO‘ZATOVDAGI YANGI SHIFO MASKANI

### QORAQALPOG‘ISTONLIKLAR QUVONCHIGA SABAB BO‘LDI

Inson qadri uchun

**Yurtimizda inson qadrini ulug‘lab, xalqimiz salomatligini asrashga ustuvor vazifa deya e’tibor berilmoqda. Olis, chekka hududlarda ham tibbiyot sohasida tub o‘zgarishlar bo‘lyapti. Fikrimizni Bo‘zatov tumanida mamlakat miqyosidagi eng yirik davolash maskanlaridan biri — “Bo‘zatov” sanatoriysi foydalanishga topshirilgani ham isbotlaydi.**




— “Bo‘zatov” sanatoriysi uchun 200 o‘rinli, xalqaro talablarga javob beradigan olti qavatli bino qurildi. Bu yerga keladiganlarga individual yondashadigan tizim yaratilgan. Davolash, reabilitatsiya jarayonlari uchun zamonaviy tibbiy uskunalar o‘rnatilgan, — deydi “Bo‘zatov sanatoriysi” MCHJ direktori Faxriddin Abdullayev. — Sanatoriy qurilishi, jihozlari uchun O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan 123 milliard so‘m ajratildi. Natijada 100 dan ziyod ish o‘rni yaratildi.

Sanatoriy yiliga olti ming kishiga xizmat ko‘rsatish quvvatiga ega. Uning hududi 12 gektarni tashkil etadi. Shundan 6,3 gektarda mevali, 4 gektarda manzarali daraxt ko‘chatlari ekilgan. Bemorlar 900 metr chuqurdan olinadigan mineral issiq suv yordamida davolanadi.

— Bu yerda terapevt, nevropatolog, kardiolog, ginekolog mutaxassislar harakat-tayanch, ovqat hazm qilish organlari, yurak-qon tomir, asab, endokrin va suyak-bo‘g‘im tizimlari kasalliklari bo‘yicha tibbiy sog‘lomlashtirish va reabilitatsiya xizmatlari ko‘rsatadi, — deydi F.Abdullayev. — Shuningdek, laboratoriya tahlili, EKG, UTT va boshqa tashxis, muolajalar o‘tkaziladi.

“Bo‘zatov” O‘zbekistondagi eng yaxshi sanatoriylar qatoridan joy olishi tabiiy. Chunki bu yerda nafas yo‘li kasalliklarini davolash uchun tuz g‘ori, oksigenoterapiya, gidromassaj (sharko, vishi, sirkulyar va suv osti) umurtqa grijasini davolash, ozonoterapiya, lazeroterapiya, karboksiterapiya va boshqa fizoterapik muolajalar qilinadi.

— Bunday sanatoriy bizning hududda qurilishi xayolimizga ham kelmagandi. Bo‘zatov tabiatining go‘zalligi bilan boshqa tumanlardan ajralib turadi. Xalqimiz tumanni “O‘zbekiston Shveysariya”si deb ataydi. Bu yerda yangi sanatoriy qurilishi ayni muddao bo‘ldi. Davolanuvchilar yaxshi hordiq chiqarishi uchun barcha imkoniyat bor. Masalan, istirohat bog‘lari, kutubxona faoliyat yuritadi. 200 kishilik madaniyat saroyi, zamonaviy oshxona, fin, rus va turk hammomlari, yopiq suv havzalari ham bor, — deydi Bo‘zatov tumanidagi “Erkindaryo” ovul fuqarolar yig‘inida yashovchi Xudoybergan Tileo‘liyev. — Asosiysi, mahalliy aholi uchun doimiy ish o‘rinlari yaratilgani quvonchli. Bo‘zatovda sanatoriy qurilishi yangi O‘zbekistonda qoraqalpog‘istonliklar farovonligi uchun bajarilayotgan ishlarning amaliy ifodasidir.

Sanatoriyda quyosh panellari o‘rnatilgan. Bu esa energiyaga talabni ishonchli ta’minlash imkonini beradi. Shu kabi jihatlar “Bo‘zatov” sanatoriysi yaqin kelajakda eng gavjum, talab yuqori bo‘lgan sog‘lomlashtirish maskanlaridan biriga aylanishidan dalolat bermoqda. Bu yerga kelgan har bir inson nafaqat salomatligini tiklaydi, balki tabiat qo‘ynida huzur-halovat va xotirjamlik topadi. Buni mahalliy aholi faxr bilan e’tirof etmoqda.

**Minajatdin QUTLIMURATOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

## AHOLI VA HUDUDLARNI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISHDA

### PROAKTIV ISHLAYDIGAN TIZIM YARATISH MUHIM

Taraqqiyot odimlari

**So‘nggi yillarda dunyoda sodir bo‘layotgan tabiiy hamda texnogen ofatlar, ularning oldini olishda profilaktik tadbirlarni manzilli tashkil etish, aholini favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlash, bilim va ko‘nikmalarini oshirish, sohaga zamonaviy axborot texnologiyalari, robototexnika va sun’iy intellektni tatbiq etish dolzarb masalaga aylandi.**



Hozir respublika hududidagi favqulodda vaziyatlarning 76 foizi aholi xonadonlari hissasiga to‘g‘ri kelib, oqibatda 2,5 trillion so‘mga yaqin moddiy zarar yetib, 3925 ta mahalla va 79 tuman (shahar) favqulodda vaziyatlar va yong‘inlar sodir bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘lgan “qizil” toifaga kiritilgan.



### Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning sabablari

Bugungi kunda sohada 30 ga yaqin qonun va qonunosti hujjat eskirgan, favqulodda vaziyatlar va yong‘inlar profilaktikasi faqat 4 ta bo‘g‘inda, ya’ni respublika, viloyat, tuman (shahar) va obyekt darajasida olib borilib, mahalla va aholi xonadonlarida tizimli profilaktik tadbirlar tashkil etilmagan.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasida soha uchun faqatgina yong‘in xavfsizligi bo‘yicha 2 ta (“Yong‘in xavfsizligi” va “Texnosfera xavfsizligi”) yo‘nalishida kadrlar tayyorlanmoqda. Sohada kasbiy o‘rta professional kadrlarni tayyorlash tizimi mavjud emas.

Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilmagan, o‘quv-metodik va moddiy-texnik baza takomillashtirilmagan, ilmiy salohiyat atigi 43 foizni tashkil etadi.

Prognozlash, monitoring, profilaktika amaliyoti to‘liq raqamlashtirilmagan, yagona tizimga kiruvchi kuch-vositalarni boshqarish va muvofiqlashtirish axborot platformasi yaratilmagan.

Aholiga xabar berish tizimi “respublika — mahalliy — lokal — obyekt” darajalarini yaxlit qamrab olmagan. Qolaversa, maxsus yong‘in-qutqaruv texnika vositalarining 60 foizi ma’nan eskirgan bo‘lib, bugungi zamon chaqiriqlariga javob bermaydi.

Sohada zarur bo‘lgan 195 dan ortiq yong‘in-qutqaruv va avariya-qutqaruv asbob-anjomlarning atigi 25 tasi yoki 11 foizi mahalliylashtirilgan. 60 turdagi qurilish materiallari hamda 50 turdagi yong‘in-qutqaruv texnik vositalariga muvofiqlik sertifikatini berish uchun zaruriy sinov-laboratoriya sharoitlari mavjud emas.

### Favqulodda vaziyatlarning oldini olishda yangi sahifa

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilishda ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olgan holda ilmiy-texnik yondashuvlar asosida samarali profilaktika va davlat nazoratining yangi mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish hamda sohaga zamonaviy raqamli yechimlarni joriy etish bo‘yicha milliy tajribani yaratish maqsadida joriy yil 20-oktabrda Prezidentimizning “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

*Davomi 3-betda*

Bizning suhbat

## XAVFSIZ AXBOROT MUHITI

### BOLALAR KONTENTI NIMALARNI O‘Z ICHIGA OLISHI KERAK?

**Milliy kontent uzluksiz tahlil va takomillashtirishni talab qiladigan muhim va strategik mavzu. Chunki zamon shiddati va axborot oqimining tezkor o‘zgarishi unga qayta-qayta yuzlanishni taqozo etadi. Bugun internet, ijtimoiy tarmoqlar, umuman, global mediaplatformalar har kuni minglab yangi axborot berib boradi. Agar milliy kontent doimiy ravishda yangilanmasa, zamon talablariga moslashmasa, yoshlar ongida boshqa madaniy ta’sirlar ustun yo g‘olib kelishi muqarrar.**

Joriy yilning 9-sentabr kuni Prezidentimiz raisligida maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bu mavzuga yana bir bor e’tibor qaratildi. Bu borada kelgusi ishlar, rejalar muhokama qilindi. Xususan, Bolalar kontentini rivojlantirish markazi, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti jamoasi oldiga qiziqarli videoroliklar yaratib, “Milliy tarbiya” platformasiga joylashtirib borish vazifasi qo‘yilgan. Institut direktori, akademik **Xolboy IBRAGIMOV** bilan suhbatimiz ana shu vazifalarga bag‘ishlandi.

*Davomi 5-betda*

Kun mavzusi

## EKSPORTNING ASOSIY KALITI

### LOGISTIKA XIZMATLARI TARMOG‘I QANDAY RIVOJLANMOQDA?

**Hozir xorijdagi yurtdoshlarimiz orasida logistika kompaniyalarida ishlayotganlar ko‘paygan. Hatto o‘zbek tadbirkorlarining o‘zi chet elda ana shunday kompaniyalarni ochib, yuk tashish xizmatlarini ko‘rsatib kelyapti. Har ikki sharoitda ham daromad yaxshi ekani aytilmoqda. Boisi, aksariyat davlatlarda yuk mashinasini haydash qora ish emas, aksincha, eng daromadli yo‘nalishlardan. Zamonaviy logistika xizmatlari keyingi yillarda yurtimiz amaliyotiga ham faol kirib keldi.**

Mamlakatimizda barcha sohalar, xususan, eksportning keng rivojlanishi, xorij bilan ochiq siyosat hamda aloqalar kengayayotgani, O‘zbekiston mahsulotlarining an’anaviy bozorlardan tashqari, Yevropa davlatlariga kirib borayotgani logistika xizmatlariga talabni oshirmoqda.

Logistika deganda, odatda, mahsulot va xizmatlarni bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga yetkazib berish tushuniladi. Saqlash, tarqatish, taqsimlash jarayonlari ham shuning ichiga kiradi.

Ko‘pincha eksportyor korxona mahsulot yoki xizmatni xorijga yetkazib berishga tayyor holatga keltiradi, ammo uni manzilgacha yetkazish uchun logistika kompaniyasiga murojaat qilib, transport xizmatlaridan foydalanishiga to‘g‘ri keladi. Yurtimizda bunday xizmat ko‘rsatadigan kompaniyalar 2016-yilgacha sanoqli edi. Borlari ham eski rusumdagi, ko‘p qulayliklarga ega bo‘lmagan yuk mashinalaridan foydalangan.

*Davomi 4-betda*

# MUQADDAS VA SHARAFLI BURCH

## MAQSAD — XALQCHIL, OCHIQ VA SAMARALI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMINI YARATISH

Nuqtayi nazar



**Mansur MUSAYEV,**
**Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, siyosiy fanlar doktori**

**Bugun yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, fuqarolarning xavfsizligini muhofaza qilish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Ayniqsa, aholining tinch va osoyishta hayot kechirishini ta’minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalalariga davlat siyosatida eng muhim va ustuvor vazifa sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda.**

Jumladan, Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so‘zsiz bajarish, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini ta’minlash borasida ichki ishlar organlari sohasida tizimli ishlar bajarilmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi bosh g‘oya xalqchil, ochiq va samarali ichki ishlar organlari tizimini yaratishdir. Zero, zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy ustunlaridan biri inson qadri va huquqlarini mustahkamlash, jamiyatda tinchlik va xavfsizlik muhitini yaratishdir. Aynan mana shu tamoyillarni amalga oshirishda ichki ishlar organlari alohida o‘rin tutadi.

Bugun yangi taraqqiyot sari dadil odimlayotgan mamlakatimizda ichki ishlar organlariga munosabat tubdan o‘zgardi. Ichki ishlar organlari xodimi deganda xalqimiz qalbi va ongida o‘z Vatanini jondan ortiq sevadigan, mamlakatimiz tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida jonini fido qiluvchi, xalq va millat manfaatlarini doim ustun qo‘yadigan, odob-axloq qoidalari va huquqiy normalarga rioya etuvchi, haqiqiy mard, vatanparvar insonlar qiyofasi gavdalanadi. Prezidentimizning 2021-yil 2-apreldagi qarori asosida qabul qilingan konsepsiyada xodimlarning ma’naviyati va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an’analarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan yagona tizim yaratish, xodimlarning ongi va qalbiga “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans sari!” g‘oyasining mazmun-mohiyatini singdirish asosida Vatan va xalq taqdiriga, davlatimiz hamda islohotlar talablariga daxldorligini yanada oshirish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan.

Sohadagi dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda tizimda xizmat qilayotgan xodimlarning kasbiy bilim saviyasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, “Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish — oliy burchimiz!” degan ezgu g‘oyani qalbi va ongiga singdirgan xodimgina o‘z vazifasini vijdonan va sidqidildan bajaradi. Buning uchun, avvalo, ichki ishlar tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni mutlaqo yangi shaklda yo‘lga qo‘yish va amalga oshirish talab etiladi.

**Birinchidan,** ma’naviy yuksak kadrlarni shakllantirish. Yuksak ma’naviyatli inson fidoyilik, jasorat, mardlik, bag‘rikenglik, Vatanni sevish, milliy qadriyatlarimizni qadrlash, buyuk ajdodlaridan faxrlanish kabi olijanob fazilatlari bilan ajralib turadi.

**Ikkinchidan,** vatanparvar, yurtga sadoqatli kadrlarni tayyorlash. Haqiqiy vatanparvarlik millat, Vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli yo‘lida mehnat qilish va kurashish demakdir. Vatanparvar o‘z xalqining yaxshi va yomon kunlarida u bilan birga bo‘ladi, o‘z baxtini Vatan baxtidan izlaydi.

**Uchinchidan,** bilimli va salohiyatli kadrlar tayyorlashda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish. Har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlashda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish g‘oyat zarur. Zero, ichki ishlar organlari xodimlarini yuksak kasb madaniyati sohibi etib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda kitobning ahamiyati katta.

**To‘rtinchidan,** kadrlar bilan ishlashda tarbiyaviy ishlarni jadallashtirish. Shu bois, ichki ishlar organlarida shaxsiy tarkibni tarbiyalash, ushbu tizimni yanada takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa, yosh xodimlarni ona Vatanga muhabbat, kasbga sadoqat ruhida tarbiyalash, xizmat intizomi va qonuniylikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

**Beshinchidan,** xodimlarning ijtimoiy himoya qilish choralarini kuchaytirish. Shu maqsadda ichki ishlar organlari tizimida uzoq yillardan buyon xizmat qilib kelayotgan xodimlar va oila a’zolarini uy-joy bilan ta’minlash, subsidiya ajratish, ijara to‘lovini qoplash masalalari hal etilyapti. Joylarda turar joyga ehtiyojmand xodimlar ro‘yxati yuritilib, ularga xizmat uylari ajratilmoqda. Qisqasi, ularning quvonchu tashvishiga sherik bo‘lish doimiy yumushga, ma’naviy ehtiyojga aylangan.

Bugun mamlakatimizda ichki ishlar organlarining faoliyati ochiq va oshkoralik yo‘sinida, fuqarolarning ularga ishonchi oshishini ta’minlaydigan tarzda tashkil etilmoqda. Odamlarni eshitish boshlandi. Ularning muammolari, dardu tashvishlarini o‘rganish tizimi yaratildi. Xalq bilan aniq maqsadni ko‘zlab o‘tkaziladigan tizimli muloqotlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Eng asosiysi, mamlakatimizdagi tub islohotlar ichki ishlar organlarini aholiga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatadigan, xalq manfaatlariga xizmat qilishni o‘z xizmat burchi deb biladigan, ijtimoiy yo‘naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga zamin yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligi va ta’sirchanligini oshirishda “ma’naviyat — ma’rifat — ta’lim va tarbiya — targ‘ibot” tamoyiliga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda shaxsning shakllanishiga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Atoqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida insonning kamol topishida tarbiyaning o‘rnini alohida ta’kidlar ekan, “Bolaning salomi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdir”, deydi.

> **O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligi va ta’sirchanligini oshirishda “ma’naviyat — ma’rifat — ta’lim va tarbiya — targ‘ibot” tamoyiliga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.**

Xalq xizmatchisi bo‘lishi nafaqat sharaf, balki muqaddas burch va javobgarlik ekanini ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xodimlar teran anglashi lozim. Bugun taraqqiyot sari dadil odimlayotgan yangi O‘zbekistonda xalqchil ichki ishlar organlari tizimini yaratish bosh g‘oyaga, “Vatan va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish — oliy burchimiz” konseptual tamoyili ichki ishlar organlari xodimlarining harakat dasturiga aylanib bormoqda.

Munosabat

**Beshafqat globallashuv qonuniyatlari to‘xtab qolgan, fikrlamaydigan, olg‘a yurmaydigan, yangiliklardan mosuvo xalq va millatlarni ayab o‘tirmayapti. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, har hafta ikkitadan til tanazzulga yuz tutayotir. Bu holat o‘sha xalqlar uchun ayanchli jarayon, haqiqiy fojiadir.**



# SUN’IY INTELLEKT

## O‘ZBEK TILI ISTIQBOLI UCHUN QANOT BO‘LMOG‘I KERAK



**Abdulhay SOBIROV,**
**Andijon davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori**

Prezidentimiz rahbarligida yurtimizda dunyo xalqlariga namuna bo‘lgudek olamshumul ishlar amalga oshirilmoqda. Boy va teran tariximizning borligi, xalqimizning ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan chuqur tafakkur va yuksak ma’naviyatga ega ekani har sohada ijobiy natijalarga erishishimiz uchun o‘ziga xos zamin vazifasini o‘tamoqda. O‘zbek tili xuddi qadimda umumturkiy til Buyuk ipak yo‘lining barcha chorrahasida yangraganidek bugun dunyoning yuksak minbarlarida, oliy darajadagi uchrashuvlarida jaranglab, butun yer yuziga tarqalmoqda.

Bu boradagi yangiliklarni sharhlar ekan, Buyuk Britaniyaning yurtimizdagi elchisi Timoti Smart: “O‘zbek tilining hatto Oksfordda ham o‘qitilayotgani juda ajoyib. Bu — uning boy merosi va zamonaviy ahamiyatining e’tirofidir”, deydi.

E’tirof zamirida ko‘p gap bor. Hozir mamlakatimizda ona tiliga hurmat-e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Kuni kecha Prezidentimizning “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi. Shuningdek, davlatimiz rahbari O‘zbek tili bayrami munosabati bilan xalqimizga tabrik yo‘lladi. Bu esa mazkur fikrlarning navbatdagi tasdig‘idir.

Bugun davr davlat tiliga boshqacha yondashishni talab qilmoqda. Zero, hayotimizga ilm-fan, texnika yutuqlari bahor epkini kabi uzluksiz kirib kelmoqda. Ayniqsa, keyingi paytlarda sun’iy intellekt masalasi kun tartibiga chiqdi. Milliy tillarning kelajagini usiz tasavvur qilib bo‘lmay qoldi. Jahon tajribasidan o‘tayotgan bu jarayon ham davlatimiz rahbarining nazaridan chetda qolmadi. O‘zbek tilini takomillashtirish rejalarini unga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish hayotiy ehtiyojga aylandi.

“Hayotimizda sun’iy intellekt ta’siri ortib borayotgan bir paytda bu qudratli vosita yordamida ona tilimizni rivojlantirish va targ‘ib etish — davr talabidir”, deyiladi bayram tabrigida. Shuningdek, mazkur qaror va tabrikda nazarda tutilgan ulkan vazifalar faqat soha mutaxassislari va davlat xizmatchilarining vazifasi emas, balki jadid bobolarimiz ta’kidlagan millat uchun hayot-mamot masalasidir. Butun xalq, millat o‘zbek tili atrofida birlashib, jipslashib harakat qilsa, bu borada muayyan yutuqlarga erishish mumkin.

Bugun ilg‘or davlatlar va millatlar ona tili taqdirini faqat shu yo‘l bilan, ilm-fan, texnika yutuqlari, sun’iy intellekt yordamida mustahkamlab olmoqda. O‘zbek tili ham ilm-fan, texnika tiliga aylantirilmas ekan, jonli so‘zlashuv tili bosqichidan keyingi sifat bosqichiga ko‘tarilmay, tor doirada qolib ketaveradi.

Ayni paytgacha qilingan ishlar, jumladan, 100 mingdan ortiq geografik obyekt nomining davlat reyestriga kiritilgani, hududlardagi 150 mingdan ziyod tashqi yozuvning davlat tili va reklama to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqlashtirilgani, rahbarlik lavozimlariga nomzodlarning o‘zbek tili bo‘yicha bilimi darajasini aniqlash maqsadida milliy test tizimi joriy etilib, qisqa muddatda 3000 dan ziyod talabgorning qariyb 1500 nafariga davlat tilini bilish bo‘yicha sertifikat berilgani, o‘zbekcha matnlarni sun’iy intellekt yordamida qayta ishlash va o‘zbek tilida muloqot qilishga mo‘ljallangan “aqlli” dastur ishlab chiqilgani kabi qator chora-tadbirlar hozirgi davr shitobi oldida yetarli emas.

Bugungi vaziyat oldingi yillardagidan keskin farq qiladi. Jahonda sodir bo‘layotgan voqealar ilm-fan, texnika sohalarida ilg‘orlikni qo‘lga kiritgan ingliz, nemis, rus, xitoy, yapon, koreys millatlarining tili boshqa tillarga nisbatan hukmron mavqega o‘tib borayotganini ko‘rsatmoqda. Masalan, dunyo bo‘ylab tarqalayotgan axborotning 80 foizi ingliz tili hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

“World Wide Web Foundation” vakili Xuan Ortiz Freylerning aytishicha, dunyo aholisining qariyb 5 foizi ingliz tilida gaplashadi, biroq internetdagi barcha kontentning qariyb 50 foizi shu til orqali tarqaladi. Internet “madaniy ommalashuv”ga ulkan hissa qo‘shmoqda, Facebook va Googledan foydalanuvchilar soni kundan kunga oshib bormoqda.

Tadqiqotchi Devid Graddolning hisob-kitobiga ko‘ra, hozir ingliz tilida yuritiladigan 750 million atrofida sayt mavjud. Ular umumiy miqdorning 54,7 foizini tashkil etadi. Ikkinchi o‘rinda turgan rus tilidagi saytlar hajmi 6 foizga teng. Keyingi o‘rinlar esa nemis, ispan, fransuz, xitoy, yapon tillariga tegishli. O‘zbekiston bu borada 46-pog‘onani band etib turibdi. Nimalarga e’tibor qaratishimiz lozimligi ana shu ma’lumotlardan ham oydinlashdi va to‘g‘ri yo‘lni Prezidentimiz ko‘rsatib bermoqda.

Oldimizda muhim vazifalar turibdi. Ona tilimizning davlat tili sifatidagi nufuzini saqlab qolish, uning sofligi, to‘g‘ri qo‘llanishi, ifodaviyligini kengaytirish ustida jiddiy bosh qotirish va xalqaro maydonlardagi nufuzini ko‘tarish shular jumlasidan. Buning uchun tezkorlik bilan o‘zbek tilini raqamlashtirish, uning milliy korpusini yaratish, hamma topgan-tutganimizni kompyuter dasturlariga kiritish, xuddi ingliz tilidagi kabi behisob foydali platformalar, milliy ruhdagi saytlar yaratishimiz kerak.

Davlatimiz rahbarining mazkur tarixiy hujjatlari davlat tili sohasida yangi yutuqlarga erishishimiz va to‘g‘ri yo‘ldan ketishimiz uchun dasturulamal vazifasini o‘tashiga ishonchimiz komil.

# O‘ZBEKISTON YIRIK AVIATSIYA XABIGA AYLANADI

Sharh

Boshlanishi 1-betda

Ushbu ko‘rsatkichni davlatlar kesimida tahlil qilsak, manzara yanada oydinlashadi. 2022-yildagi pandemiya davriga nisbatan bu yil turistlar kelishi Buyuk Britaniyadan 2,6, Qatardan 6,2, AQSHdan 3, Fransiyadan 2,9, Rossiyadan 2,1, Vengriyadan 3,3, Germaniyadan 2,5, Polshadan 6,2 baravar ko‘paygan. Bu raqamlar mamlakatimizda turizm izchil rivojlanayotganini ifodalaydi. Shuningdek, sohadan tushayotgan foyda ham rekord darajada — 3,6 milliard dollarni tashkil qildi.

Odatda sayyohlar ko‘ngli huzur topadigan, zavq oladigan, taassurot va sarguzashtga boy, tinch va xavfsiz o‘lkalarga sayohat qilishni istaydi. So‘nggi yillarda yaxshi qo‘shnichilik aloqalari tiklangani, chegaralar ochilgani tufayli mintaqamiz bo‘ylab bemalol harakatlanish imkoniyati yaratildi. Bu o‘z-o‘zidan O‘zbekistonga kelishni istovchilar sonining oshishida ham asosiy omil bo‘lmoqda.

Bejiz sayyohlik haqida so‘z ochmadik. Chunki bugun dunyodagi eng serdaromad sohalardan biri bo‘lgan turizm yurtimizda jadal rivojlanmoqda. Mehmonxonalar, sayyohlik yo‘nalishlari, transport-logistika tizimi, umuman, infratuzilma mazkur tarmoqda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda transport infratuzilmalarini modernizatsiya qilish, yangilarini bunyod etishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Bundan sakkiz yil oldin Toshkent aeroporti 3 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatardi. Hozir esa aviayo‘lovchilar oqimi 3 karra oshib, yiliga 9 millionga yetdi.

Qolaversa, hozirgi aeroport shahar kengayishi hisobiga poytaxt ichida qoldi va uni kengaytirishning iloji yo‘q. To‘la quvvatda ishlaganda ham ushbu aviaqo‘nalg‘ada 11 million kishiga xizmat ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Mutaxassislarning ma’lumotiga ko‘ra, 2040-yilga borib, Toshkentga birgina havo transporti orqali kelib-ketuvchilar soni 24 milliondan oshadi. Demak, aeroport xizmatiga ehtiyoj kamida ikki barobar ortadi.

Shu bois, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Yangi Toshkent xalqaro aeroportini bunyod etishga kirishildi. Shahar chekkasida yaxlit shaharcha deya e’tirof etilayotgan poytaxtimizning “havo darvozasi” Toshkent viloyatining O‘rta Chirchiq va Quyi Chirchiq tumanlari hududidagi 1310 gektar maydonda bunyod etiladi.

Loyiha davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladi. Saudiya Arabistonining “Vision Invest” (45 foiz), Yaponiyaning “Sojitz Corporation” (30 foiz), Janubiy Koreyaning “Incheon International Airport Corporation” (15 foiz) va “Uzbekistan Airports” (10 foiz) kompaniyalari konsorsiumi tashkil etildi. Dunyoga dong‘i ketgan nufuzli kompaniyalarning ishtirok etayotgani, milliardlab sarmoya kiritayotgani ham ushbu yirik loyihaning Markaziy Osiyoda eng istiqbolli loyihalardan biri ekanini ko‘rsatib turibdi.

> **Loyiha 4 bosqichda amalga oshiriladi. Xususan, birinchi bosqichda 2,6 milliard dollar investitsiya kiritiladi. Shundan 1,8 milliard dollari aerovokzal qurilishiga yo‘naltiriladi. Aerodrom infratuzilmasiga esa 800 million dollar sarflanadi.**







> **Yangi aeroport yiliga 20 million yo‘lovchi va 129 ming tonna yuk qabul qila oladi. Soatiga 30 ta uchish-qo‘nish operatsiyasi bajariladi, 62 ta samolyotni bir vaqtda joylashtirish imkoni bo‘ladi. Eng muhimi, aeroport qayta tiklanuvchi energiya manbalari yordamida ishlaydigan, dunyodagi eng ekologik toza aeroportlardan biri bo‘lishi kutilmoqda.**

Yangi aeroport yiliga 20 million yo‘lovchi va 129 ming tonna yuk qabul qila oladi. Soatiga 30 ta uchish-qo‘nish operatsiyasi bajariladi, 62 ta samolyotni bir vaqtda joylashtirish imkoni bo‘ladi. Eng muhimi, aeroport qayta tiklanuvchi energiya manbalari yordamida ishlaydigan, dunyodagi eng ekologik toza aeroportlardan biri bo‘lishi kutilmoqda.

Savdo maydoni ham jahon standartlariga mos bo‘ladi: “Duty Free” zonasi 46 ming kvadrat metrni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha yangi qurilayotgan aeroport Istanbul, Londonning “Xitrou” va Dubay aeroportlari bilan raqobatlasha oladi.

Aeroport qurish uchun hatto kam tuman tushadigan, eng qulay ob-havo kuzatiladigan joy tanlandi. Yangi aeroport yo‘llari Toshkent — Samarqand, Toshkent — Andijon, Toshkent — Bo‘stonliq pulli avtomobil yo‘llariga ulanadi, tezyurar poyezd qatnovi yo‘lga qo‘yiladi. U foydalanishga topshirilgach, yiliga 27 milliard dollardan ortiq daromad keltirishi ta’kidlanyapti.

Umuman olganda, butun mamlakatimizda aeroportlar ekotizimini yaxshilash, zamon talablari darajasida tashkil etish borasida katta ishlar qilinmoqda.

Odatda yirik aeroportlar davlatlar, shaharlarning taraqqiy etishida muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Dubay, Istanbul, Pekin aeroportlari nafaqat shaharlar, balki mamlakatlarga ham investitsiya oqimi kirib kelishiga xizmat qilmoqda. Ushbu aeroportlarning davlatlar taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasini hisoblashning imkoni bo‘lmasa kerak.

Buni Samarqand aeroporti misolida ham ko‘rish mumkin. Mamlakatimizda ilk bor davlat-xususiy sheriklik asosida mazkur zamonaviy aviaqo‘nalg‘a tashqi boshqaruvga berildi. Qisqa muddatda 174 million dollarlik investitsiya kiritilib, aeroport eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlandi. Yo‘lovchilar oqimi 4 barobar oshdi.

Kuni kecha Janubiy Koreyaning “Incheon International Airport Corporation” kompaniyasiga Urganch xalqaro aeroporti davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruvga berilgani ma’lum qilindi. Kompaniya ilg‘or menejmenti va texnologiyalari orqali Xorazm va Qoraqalpog‘istondagi transport salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishni rejalashtirmoqda.

11 milliondan ziyod aholi yashaydigan Farg‘ona vodiysi uchun ham zamonaviy aeroportlar muhim strategik ahamiyatga ega. Hozir Andijon va Namangan aeroportlari, umuman, mamlakatimizning 7 hududida aeroportlar rekonstruksiya qilinyapti. Bugungi davr talablariga moslashtirilyapti. Mo‘ynoq, Qo‘qon, Zomin, Shahrisabz, Sariosiyo, So‘x tumanlarida yangi aeroportlar barpo etilib, mamlakatimizda aviaqo‘nalg‘alar soni 18 taga yetkazildi.

Eng muhim jihati, sohada raqobat muhiti yaratilgani bois, bugun O‘zbekiston transport bozorida 15 ta yangi aviakompaniya paydo bo‘ldi. Ularning aviaparkidagi havo kemalari soni esa 105 taga yetdi.

Ayni paytda Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston, Malayziya, Turkiya, Rossiya, Polsha kabi davlatlarning 51 ta aviakompaniyasi mamlakatimizga muntazam qatnovlarni amalga oshirmoqda. Kelgusi besh yilda aviaparkdagi havo kemalari 180 taga, yo‘nalishlar 230 taga, mahalliy va xalqaro aviaqatnovlar soni esa yiliga 200 mingga yetkaziladi.

Davlatimiz rahbari yangi xalqaro aeroport qurilishi bilan tanishar ekan, “Ushbu islohotlarimizning pirovard natijasida O‘zbekistonni Sharq va G‘arb, Janub va Shimolni bog‘lovchi yirik aviatsiya xabiga aylantirishni maqsad qilganmiz”, deya alohida ta’kidladi.

Kattaligi va imkoniyatlari kengligi jihatidan Markaziy Osiyoda yagona aviatsiya xabiga aylanishi kutilayotgan ushbu yirik majmua sayyohlar va investitsiyalarning nafaqat O‘zbekistonga, balki mintaqa mamlakatlariga oqimini kuchaytirishga xizmat qilishi shubhasiz.

**Yunus BO‘RONOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# AHOLI VA HUDUDLARNI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISHDA

## PROAKTIV ISHLAYDIGAN TIZIM YARATISH MUHIM

Taraqqiyot odimlari



Botir QUDRATXO‘JAYEV, favqulodda vaziyatlar vaziri, general-mayor

Boshlanishi 1-betda

Farmon bilan aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish borasidagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Jumladan:

— favqulodda vaziyatlarning barvaqt oldini olish va oqibatlarini kamaytirish faoliyatini ustuvor vazifa sifatida qabul qilish orqali mahallalar darajasida keng qamrovli profilaktika mexanizmlarini yaratish va samarali tatbiq qilish;

— energetika, yirik ishlab chiqarish, qurilish va xizmat ko‘rsatish obyektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, xavfni boshqarish, texnogen avariyalarni o‘z vaqtida bartaraf etishning yangi standart hamda metodikalarini ishlab chiqish va favqulodda vaziyatlar sharoitlarida harakatlanish amaliyotini yo‘lga qo‘yish;

— favqulodda vaziyatlar yo‘nalishida davlat nazorati shakllarining talablari hamda me’yorlarini zamon talablariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini transformatsiya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini belgilash;

— favqulodda vaziyatlar xavfini bartaraf etish sohasiga sun’iy intellekt, robototexnika va zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, mazkur holatlarning oldini olishga mas’ul idora va tashkilotlarning axborot tizimlarini yagona texnologik platformaga birlashtirish;

— barcha bo‘g‘indagi favqulodda vaziyatlar organlari uchun kadrlar va rahbarlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha dual ta’limga asoslangan yaxlit, uzluksiz o‘quv tizimini yo‘lga qo‘yish, mazkur jarayonga o‘qitishning ilg‘or pedagogik usullarini tatbiq etish;

— favqulodda vaziyatlarning monitoringi



va ularni prognozlash, shuningdek, aholi va hududlarni tabiiy ofatlar, texnogen avariyalar va yong‘inlar xavfidan muhofaza qilish sohasida manzilli ilmiy-innovatsion va sinov-tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish.

Farmon bilan sohada aniq chora-tadbirlarni ko‘rish, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan profilaktik tadbirlarni qadamma-qadam tashkil etish maqsadida quyidagi tashkiliy asoslar tasdiqlandi:

— 11 ta asosiy vazifa, 9 ta ustuvor yo‘nalish hamda 19 ta maqsadli ko‘rsatkichni qamrab olgan Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi;

— O‘zbekiston Respublikasining 7 ta qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta farmoni va 5 ta qarori, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 30 ta qarori loyihalarini ishlab chiqish hamda 12 ta idoraviy hujjatni tayyorlashni nazarda tutuvchi 2025-2027-yillarga mo‘ljallangan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini 2025-2027-yillarda amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari raisligidagi 12 ta vazirlik va idora rahbarlaridan iborat ishchi komissiya tarkibi tasdiqlanib, uning ishchi organi etib Favqulodda vaziyatlar vazirligi belgilandi.

Bu yaratib berilgan imkoniyatlar bilan birga Favqulodda vaziyatlar vazirligi rahbariyati va shaxsiy tarkibi zimmasiga ulkan mas’uliyat ham yuklaydi.

Ishchi komissiya va ishchi organga dasturda nazarda tutilgan chora-tadbirlar o‘z vaqtida amalga oshirilishini doimiy nazorat qilish hamda natijalarni har chorakda tanqidiy muhokama qilib borish, shuningdek, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va yong‘in xavfsizligini ta’minlash jarayonida tashkiliy choralarni ko‘rishda malakali xorijiy ekspertlarni jalb etish vazifasi ham qo‘yildi.

Farmonning muhim jihatlaridan biri hududlarda hokimlarning xalq deputatlari tuman (shahar) va viloyat kengashlariga hisoboti belgilanishidir.

Endilikda aholi xonadonlarida va mahallalarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish sohasida yuzaga kelayotgan muammolarga tezkor yechim topish hamda kamchiliklarni joyida bartaraf etish imkoniyatlari yanada oshadi.

Farmon bilan 2025-yil 1-noyabrdan boshlab Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida mehnat shartnomasi asosida mehnat faoliyati qutqaruv ishlari va yong‘inlarni o‘chirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni amalga oshirgan xizmatchilarning muayyan qismiga imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlash belgilandi.

### Ustuvor yo‘nalishlar ijrosi — inson xavfsizligining kafolati

Mamlakatimiz fuqarolari va tashrif buyurayotgan mehmonlar xavfsizligini ta’minlash, davlat tasarrufidagi, ijtimoiy, yirik ishlab chiqarish, iqtisodiyot hamda turistik obyektlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining “Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ham inson xavfsizligi va obyektlar barqarorligini ta’minlashga qaratilgan.

Qaror bilan, birinchi navbatda, sohaga mas’ul bo‘lgan Favqulodda vaziyatlar vazirligining rahbar va shaxsiy tarkibining javobgarlik chegaralari belgilandi, bir-birini takrorlovchi funksiyalar maqbullashtirildi va mahallalarda faoliyat yurituvchi profilaktika inspektorlari soni oshirildi. Jumladan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida eng og‘riqli nuqtalardan biri bo‘lib kelgan davlat nazorati sohasi birlashtirildi, xususan, barcha nazorat funksiyalarini yagona tartib asosida amalga oshiruvchi favqulodda vaziyatlar organlari davlat nazorati inspektori lavozimi joriy qilindi.

Shuningdek, davlat yong‘in nazorati organlari vakolatlari favqulodda vaziyatlar organlari zimmasiga yuklatilib, Favqulodda vaziyatlar vazirligi mazkur sohada huquqni qo‘llash amaliyoti bo‘yicha yagona respublika ijro etuvchi organi etib belgilandi.

Bu tartib kelajakda bir-birini takrorlovchi, asossiz va rejasiz tekshirishlarning oldini olishga xizmat qiladi va ortiqcha rasmiyatchiliklarga barham beradi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi



tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning quyi tizimida, ya’ni viloyat, tuman va shaharlarda faoliyat ko‘rsatuvchi idora va tashkilotlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular sodir bo‘lganda kuch va vositalarning yagona boshqaruvini ta’minlash kabi ishlarni bajarish maqsadida hududiy Favqulodda vaziyatlar bo‘lim va boshqarmalari boshliqlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlar (shaharlar) hokimlari — fuqaro muhofazasi boshliqlari o‘rinbosarlari hisoblanishi belgilandi.

Bu, o‘z navbatida, joylarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular sodir bo‘lganda bartaraf etishda kuch va vositalarning yagona boshqaruvini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, favqulodda vaziyatlar organlari vazifa va funksiyalarini aniq belgilash, tizimning barcha bo‘g‘inida natijador xizmatni tashkil qilishni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to‘g‘risidagi yangi nizom tasdiqlandi.

Yuqorida qayd etilgan qaror bilan mahallalarda manzilli profilaktika tadbirlari tashkil etilishi bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi.

“Mahallamizni favqulodda vaziyatlardan muhofazalangan hududga aylantiramiz” shiori ostida “profilaktika-muhofaza” tamoyili asosida tashkiliy mexanizmlar belgilandi. Jumladan:

— 9008 ta mahallada favqulodda vaziyatlar yuz berish xavfini 24 ta oliy va ilmiy tashkilot professor-o‘qituvchilarini jalb qilgan holda ilmiy-texnik yondashuv asosida o‘rganishlar olib boriladi;

— o‘rganishlar natijasida xavf indikatorlari shakllantiriladi, unga ko‘ra har bir mahalla “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratiladi;

— favqulodda vaziyatlar yuz berish xavfi yuqori bo‘lgan (“qizil” va “sariq” toifadagi) mahallalar muntazam ravishda xonadonbay o‘rganib boriladi va hudud, tuman (shahar) va mahallalar kesimida muammolarni bartaraf etish orqali xavf indikatorlarini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi;

— tuman (shahar) favqulodda vaziyatlar bo‘limi (boshqarmasi) rahbar xodimlarini, davlat inspektorlarini, birinchi navbatda, “qizil” va “sariq” toifadagi mahallalarga biriktirish orqali “mahalla yettiligi” vakillari va mahalla faollari bilan manzilli kompleks profilaktika tadbirlari tashkil etiladi;

— mahallalarning xavf darajalaridan kelib chiqib, hududiy birlik doirasida davlat inspektorlari profilaktika tadbirlarini amalga oshirish uchun eksterritorial tamoyil asosida taqsimlab boriladi;

— inspektorlarning ishni samarali tashkil qilishini ta’minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig‘ini binosi va huquq-tartibot maskanlarida davlat inspektorlarining “Mahalla muhofazasi” xizmat xonasi tashkil etiladi;

— mahallalardagi 7,5 million uy-joy fondi va 300 mingdan ortiq nazorat hamda 5349 ta xavfli ishlab chiqarish obyektida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va texnik-profilaktik chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish, natijadorligi bo‘yicha ta’sirchan davlat nazoratini o‘rnatish hamda faolligi uchun mas’ullar va jamoatchilik vakillarini rag‘batlantirib borish tartibi yo‘lga qo‘yiladi.

Bunda fuqarolik muhofazasi borasida o‘quv-amaliy va kompleks targ‘ibot-profilaktika tadbirlari tizimli ravishda o‘tkazib borilib, o‘rmon fondi obyektlarida mavsumoldi va mavsumda, paxta-to‘qimachilik klasterlari, qurilish obyektlari hamda yirik savdo-ko‘ngilochar markazlarda amaldagi qonunchilik hujjatlari doirasida aholi xavfsizligini ta’minlash va ularning mol-mulkini asrashga qaratilgan manzilli profilaktik tadbirlar amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda is gazidan zaharlanish hamda havo-gaz aralashmasi chaqnashi kabi noxush holatlarning oldini olish maqsadida aholi xonadonlari va xizmat ko‘rsatish obyektlaridagi gaz plitalari, isitish qozonlari, dudbo‘ronlar (olovdan himoya qilish va pech-mo‘rikon) va ventilyatsiya tizimlariga shartnoma asosida pulli texnik xizmat ko‘rsatiladi.

Bunga yetarli darajadagi bilim va ish tajribasiga ega bo‘lgan malakali mutaxassislar fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida jalb etiladi. Bu borada 2026-yil 1-yanvardan boshlab bir yil davomida Toshkent viloyati hududida sinov tariqasida “Mahalla muhofazasi” loyihasi amalga oshiriladi.

Loyiha doirasida mahallalarda elektr energiyasining behuda sarflanishi hamda gaz va elektr tarmoqlariga xavfsizlik talablariga zid ravishda ulanishlarning oldini olish,



shartnoma asosida uy-joy fondida shamollatish kanallari va dudbo‘ronlar sozligini ta’minlash, olovdan himoya qilish va pech-mo‘rikon ishlarini bajarish, elektr va gaz jihozlariga, shuningdek, yong‘inga qarshi himoya tizimlari va vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish hamda ularni ta’mirlash kabi xizmatlar ko‘rsatilib, targ‘ibot-tashviqot o‘tkaziladi va sohaga oid maxsus adabiyot hamda targ‘ibot materiallari tarqatiladi.

### Aholida favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik madaniyati yanada yuksaltiriladi va volontyorlik harakati ommalashtiriladi

Bolalar va yoshlarni favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanish, hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashga uzluksiz tayyorlash uchun mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha ta’lim tashkilotlari tarbiya-o‘quv jarayoniga amaliy mashg‘ulotlar kiritiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda shaxsiy xavfsizlik kompetensiyalarini bolalikdan shakllantirishda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi doirasida xavfsiz harakatlanish bo‘yicha ilk ko‘nikmalarni muammoli-vaziyatli o‘yinlar va interfaol mashg‘ulotlar orqali shakllantirish yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasbiy ta’lim tashkilotlarida, shuningdek, oliy ta’lim tashkilotlarida “Hayot faoliyati xavfsizligi” mavzularida o‘quv-amaliy (taktik) mashqlar o‘tkaziladi.

Har yili ikki marotaba (bahor va qish mavsumlaridan oldin) ish bilan band bo‘lmagan aholi qatlami, inklyuzivlik tamoyili asosida nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan mahalla fuqarolari yig‘ini vakillari hamkorligida favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish bo‘yicha birlamchi ko‘nikmalar shakllantiriladi.

> **Mulkchilik shaklidan qat’i nazar, bitta binoda ishchi va xodimlar soni jami 50 nafardan yuqori bo‘lgan tashkilot va muassasalarda favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish bo‘yicha shartnoma asosida o‘quv-amaliy o‘qitishlar o‘tkaziladi.**

O‘zbekiston volontyorlari assotsiatsiyasi bilan birgalikda yoshlar orasida volontyor va aholi o‘rtasida ko‘ngilli qutqaruvchilardan iborat “Favqulodda vaziyatlar volontyori” jamoatchilik guruhlari shakllantirilib, ular ko‘magida mahallani favqulodda vaziyatlardan xoli hududga aylantirishga qaratilgan “Biz birgamiz!” harakati amalga oshiriladi. Bunda volontyorlik guruhlari faoliyatida “mahalla — volontyor — davlat inspektori” uzviy hamkorligi yo‘lga qo‘yiladi.

Harakatni qo‘llab-quvvatlash maqsadida natijalari bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lgan volontyorlarga favqulodda vaziyatlar vaziri tavsiyasiga asosan vazirlik akademiyasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga kirishda imtiyoz beriladi.

Mahallalarda ko‘ngillilarni jalb etishda muhim jihatlardan biri shuki, ularga “mahalla yettiligi” tavsiyasiga asosan hududiy qutqaruv tuzilmalari qutqaruvchi lavozimiga ishga qabul qilish bo‘yicha tanlovda belgilangan tartibda ustuvorlik beriladi.

### Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini raqamlashtirish

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini raqamli transformatsiya qilish, sohaga sun’iy intellekt va robototexnika imkoniyatlarini tatbiq etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik yo‘nalishlarini o‘zaro integratsiya qilish orqali mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning yaxlit innovatsion zanjirini yaratishda Prezidentimizning “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini raqamlashtirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori Favqulodda vaziyatlar vazirligiga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Bunda cohani yaxlit raqamli transformatsiya qilish hamda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish doirasida istiqboldagi asosiy vazifalar belgilab berildi.

Birinchi vazifa: 2027-yil 1-dekabrga qadar sohaga mas’ul vazirlik va idoralarning tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognozlash kabi axborot tizimlari umumiy texnik yondashuv asosida yagona platformaga birlashtiriladi, 2030-yilga qadar zarur axborot infratuzilmasi va resurslari to‘liq shakllantiriladi.

Ikkinchi vazifa: 2028-yil 1-dekabrga qadar favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli yechimlarni joriy etish orqali raqamlashtirish darajasi 60 foizga yetkaziladi.

Uchinchi vazifa: monitoring, prognozlash va profilaktika faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish maqsadida sohada kibertahdidlardan himoyalangan axborot infratuzilmasi yaratiladi.



To‘rtinchi vazifa: 2030-yilga qadar sohaga zarur import qilinayotgan avariya-qutqaruv va yong‘in-texnik mahsulotlarni mahalliylashtirish darajasi 30 foizga yetkaziladi.

Beshinchi vazifa: sohaga oid innovatsion mahsulotlarni yaratish, sinov-tadqiqot ishlari, muvofiqlikni baholash tizimi va yong‘in-texnik ekspertizasi yanada rivojlantiriladi.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasi doirasida mas’ul vazirlik va idoralarning tegishli axborot tizimlari, resurslari, multiservis tarmoqlarini yaratish hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash uchun zarur shart-sharoitlarni tashkil etish maqsadida 2026-yil 1-yanvardan boshlab 2027-yil yakuniga qadar Favqulodda vaziyatlar vazirligida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan “Digital team” idoralararo raqamli jamoa faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Bunda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda idoralararo raqamli jamoa tarkibidagi vazirlik va idoralar tegishli mutaxassislari va moliyaviy resurslari bilan ishtirok etadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Raqamli texnologiyalar vazirligining muvofiqlashtiruvida quyidagilar amalga oshiriladi:

— 2026-yil 1-dekabrga qadar idoralararo raqamli jamoa tomonidan yagona texnologik talablar asosida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasi yaxlit raqamlashtiriladi;

— 2027-yil 1-dekabrga qadar vazirlik va idoralarning tegishli 45 dan ziyod axborot resursi va tizimi Favqulodda vaziyatlar vazirligi axborot-tahliliy platformalariga integratsiya qilinadi.

2025-yil 1-dekabrga qadar Favqulodda vaziyatlar vazirligida sohaviy tuzilmalarning malakali xodimlari hamda ilmiy-tadqiqot tashkilotlari mutaxassis-ekspertlaridan iborat kross-funksional guruh tashkil etiladi. Bunda kross-funksional guruh 2027-yil yakuniga qadar:

— sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning tashkiliy-texnik, iqtisodiy, huquqiy va metodologik asoslarini yaratish, mahalliy va ilg‘or xorijiy tajribalarning tahliliy xulosalarini shakllantirishi;

— favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini yaxlit raqamlashtirish orqali biznes jarayonlarini maqbullashtirish uchun samarali, yangi va innovatsion yechimlar ishlab chiqishi;

— raqamli transformatsiya loyihalarining segmentlari, komponentlari va algoritmlari ishlab chiqilishi, sohaga tatbiq etilishi va takomillashtirilishiga mas’ul bo‘ladi.

Tizimda ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligi Favqulodda vaziyatlar muammolari va yong‘in xavfsizligi ilmiy-tadqiqot instituti Favqulodda vaziyatlar vazirligi Ilmiy-innovatsion va sinov-tadqiqot instituti etib qayta tashkil etildi.

Mudofaa sanoati agentligining Innovatsion texnologiyalar markazi institutning ilmiy-innovatsiyaviy ishlanmalarini tajriba-konstruktorlik jihatidan ta’minlash va favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi mahsulotlar tajriba namunalarini yaratish va ularni ishlab chiqish bo‘yicha mas’ul tashkilot etib belgilandi.

2027-yil 1-yanvardan boshlab institutda innovatsion loyihalar va sinov-tadqiqot ishlari asosida ishlab chiqilgan, mahalliylashtiriladigan maxsus-texnik, ilmiy-texnik va intellektual mahsulotlarni uch yil muddatga shartnoma tuzish orqali Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlar tomonidan kafolatli xarid qilish mexanizmi joriy etiladi.

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (AT-park) va uning hududiy filiallari rezidentlarining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi muammolar yechimiga qaratilgan startap loyihalari shakllantirilib, ular inkubatsiya va akseleratsiya dasturlariga kiritiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, aholini tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishda jamiyatda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, har bir fuqaroda shaxsiy mas’uliyat tuyg‘usini kuchaytirish va xavfsiz muhit yaratishda hamjihatlikda harakat qilish barqaror rivojlanishning asosiy garovi hisoblanadi.



Kun mavzusi




# EKSPORTNING ASOSIY KALITI

## LOGISTIKA XIZMATLARI TARMOG‘I QANDAY RIVOJLANMOQDA?

Boshlanishi 1-betda

Mahsulotlar esa asosan qo‘shni davlatlarga jo‘natilgan. Ba’zan yuk mashinalari saqlash talablariga javob bermagani va mahsulot sifati buzilgani bois, buyurtmachi tomonidan qaytarib yuborilgan. Ya’ni uzoq davlatlarga eksport kamligi, mahsulotlar asosan mahalliy bozorlarga chiqarilgani sabab logistika kompaniyalariga talab yuqori bo‘lmagan.

Hozir bu bozorni yirik va zamonaviy korxonalar, hatto xorij kompaniyalari egallamoqda. Eksportyor tadbirkorlarda tanlash imkoniyati kengaygan. Mahsulotini eng tez, sifatli va xalqaro standartlar talablariga mos yetkazib beradigan logistika markazlari bilan shartnomalar imzolanyapti. Bunday kompaniyalar nafaqat transport xizmatlari ko‘rsatadi, balki tadbirkorlarni xorijdagi importyorlar bilan bog‘lab, o‘zaro shartnomalar imzolashiga ham ko‘maklashmoqda.

### Asosiy talab — sifat

Behruz Mamajonov uch yildan buyon shu yo‘nalishda faoliyat yuritadi. U ishlaydigan “All Time Group” kompaniyasi asli litvalik investorga tegishli. Korxonaning yurtimizdagi filiali 2021-yilda ochilgan. Kompaniyada transport xizmatlari ko‘rsatiladi. Avvaliga, asosan, Yevropa mamlakatlari va boshqa davlatlardan mahsulot import qilingan bo‘lsa, hozir O‘zbekistondan Yevropa bozorlariga yuk yetkazib berish faollashgan. Har oyda kamida 100 ta yuk mashinasida mahsulot eksport qilinadi.

Behruz o‘zbek, rus, ingliz va nemis tillarida erkin gaplasha oladi. Shu bois, asosan mijozlar bilan muloqot qiladi. Aytishicha, Yevropa bozorida mahalliy mahsulotlarimizga talab katta, faqat tovar mijozga sifatli yetkazib berilishi kerak. Bu vazifani logistika kompaniyasi o‘z zimmasiga oladi. Ya’ni mahsulotni ishlab chiqaruvchidan mijozgacha kerakli haroratda, sifatini saqlagan holda yetkazib berishga mas’ul.

— Ba’zi yirik kompaniyalarning o‘z yuk mashinasi bo‘ladi va tashqi manbaga ehtiyoj sezmaydi. Ammo ko‘plab o‘rta va kichik korxonalarda bunday imkoniyat yo‘q. Ular mahsulotini eksport qilishda bizniki kabi logistika kompaniyalari xizmatidan foydalanadi, — deydi Behruz Mamajonov. — Keyingi yillarda yurtimizda bu turdagi kompaniyalar ko‘payishi ortidan raqobat o‘sgani rost. Ammo shunga yarasha talab ham ortib borayotgani mijozlarimiz sonini oshiryapti. Hozir O‘zbekistonda eksportyor korxonalar ko‘p va ularning katta qismi Yevropa bozoriga chiqishga intilmoqda. Kompaniyamiz Yevropaning barcha davlati bilan hamkorlik qiladi. Yurtimizning turli hududida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni Italiya, Germaniya, Niderlandiya, Belgiya, Buyuk Britaniyaga yetkazib beramiz. Ko‘proq mineral o‘g‘it, kabel, tekstil mahsulotlari, meva-sabzavot, quruq meva eksport qilamiz. Aniqrog‘i, shu yo‘nalishda ishlaydigan mahalliy korxonalar orasida hamkorlarimiz ko‘p. Yevropa bozorida ham shu turdagi mahsulotlarga talab yuqori.

Yevropa — nihoyatda katta bozor. Unga kirib borish bir masala bo‘lsa, doimiy o‘rin egallash yanada qiyin. Chunki raqobat kuchli, sifat borasidagi talab ham juda yuqori va o‘zgaruvchan. Ana shu talabga javob bera olayotgan mahalliy tadbirkorlar doimiy xaridorga ega bo‘lyapti. Bunda ularga logistika korxonalari ham ko‘maklashyapti. Chunki mamlakatimizda eksport qancha ko‘p bo‘lsa, yetkazib berish va transport xizmatlariga ehtiyoj shuncha oshadi.



Behruzning aytishicha, hozir Yevropa davlatlariga kuniga 10 ta yuk mashinasida mahsulot eksport qilayotgan korxonalar bor. Har bitta furaga 22 tonnadan mahsulot sig‘ishini hisobga olsak, qiymatni chamalash osonlashadi. Ayniqsa, mineral o‘g‘itlar, mis va kabel mahsulotlariga talab oshib boryapti. Bu jarayon jahondagi geosiyosiy vaziyat, ayrim davlatlarga qo‘llanayotgan cheklovlar, qolaversa, qishloq xo‘jaligi, elektrotexnika sanoati kabi sohalar jadal rivojlanayotgani bilan bog‘liq. Ushbu ehtiyojni ta’minlash uchun bizda sharoit bor, barcha sohada ishlab chiqarish quvvati oshib, eksportga keng yo‘l ochildi. Faqat tadbirkorlar xalqaro standartlar talablari va sifatga alohida e’tibor qaratishi lozim.

— Logistika kompaniyasi vakili sifatida yurtimizdan Yevropa bozoriga eksport hajmi keskin oshgani, tadbirkorlarimiz yangi bozorlarga kirib borayotganiga guvohmiz, — deydi Behruz Mamajonov. — Ammo davlatimiz rahbari videoselektor yig‘ilishlarida ta’kidlayotganidek, bu hali yetarli ko‘rsatkich emas. Zarur sharoitlar yaratilganiga qaramay, Yevropaga eksport hajmi kutilganidan kam. Xo‘sh, bu nima bilan bog‘liq? Amaliyotdan kelib chiqib aytsam, bunga ko‘plab omillar sabab. Eng asosiysi, albatta, sifat masalasi va bizda mahsulot yetishtirishda uzviylik yo‘qligi, ya’ni mavsumiylik shakllanib qolganida. Masalan, yevropalik xaridor bizdan uzum sotib olishni boshlaydi. Biroq mavsum tugagach, ushbu mevani unga yetkazib berish to‘xtab qoladi. Tabiiyki, u boshqa davlatdan yetishtiruvchi izlay boshlaydi. Boshqa jihatdan, bor mahsulotni eksport qilishda ham sifat va qadoqlashda ko‘p muammolar kuzatiladi. Afsuski, tadbirkorlarimiz orasida haligacha xorijga yuborilayotgan mahsulot orasiga sifatsizlarini joylash holatlari uchrayapti. Shu sabab mijozlarning mahsulotni ortga qaytarib yuborish holatiga ko‘p duch kelamiz. Bu, avvalo, tadbirkorning hamyoniga katta zarar. Chunki transport xarajati kichik summa emas. Qolaversa, bu kabi holatlar mamlakatimiz imiji, milliy brendimizga yomon ta’sir qiladi.

Shu bois, Yevropa bozoriga hozir ko‘proq kiyim-kechak, mineral o‘g‘itlar, mis kabi mavsum tanlamaydigan, sifati o‘zgarmaydigan mahsulotlar eksport qilinyapti. Shu bilan birga, yurtimizda tayyorlangan quruq mevaga ham talab katta. Quyoshli o‘lkamizda yetishtirilgan meva-sabzavotlar ta’mini yevropaliklar e’tirof etayotgani, katta hajmdagi eksportga buyurtma berayotgani haqida eshityapmiz. To‘g‘ri, bunda ham mahsulot xaridorga yetib borgach, sifatga javob bermaslik holati kuzatiladi. Bu masala o‘zaro tuzilgan shartnomalar asosida hal etiladi. Ammo aksariyat hollarda yevropaliklar quruq mevamiz sifatidan mamnun. Boisi, tadbirkorlarimizning ham eksport bo‘yicha bilimi oshib, tartib-qoidalar va yo‘l-yo‘riqni puxta egallayapti.

### “O‘zbekiston mahsulotlarining mazasi alohida mavzu”

Bugun mamlakatimizda ishlab chiqarish quvvatini oshirish bilan birga mahsulotlarga munosib xaridor va bozor topishga ham katta e’tibor qaratilyapti. Aniqrog‘i, bu sa’y-harakatlar sakkiz yil oldin butunlay yangidan boshlandi deyish mumkin. Bugungi natijalar esa o‘sha vaqtdagidan bir necha barobar yuqori. Xususan, o‘tgan davrda yurtimiz yalpi ichki mahsuloti 2 barobar oshib, o‘tgan yili eksport qiymati 26 milliard dollarga yetdi.

Bunda xorijiy investitsiyaning ham ulushi katta. Uning hisobiga mamlakatimizda yuzlab ishlab chiqarish korxonasi ochilib, barcha sohaga zamonaviy texnologiyalar joriy etilyapti. Yangicha, xalqaro standartlar asosida ishlash tajribasi rivojlanyapti. Quvvatlar oshishi eksport hajmi, iqtisodiyot rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Birgina misol: o‘tgan sakkiz yilda mamlakatimizga qariyb 130 milliard dollarlik xorijiy investitsiya kirib keldi.

“All Time Group” logistika kompaniyasi ham xorijiy korxona bo‘lib, bosh ofisi Litvada joylashgan. 2010-yilda tashkil topgan mazkur kompaniya mamlakatimiz bozoriga 2016-yilda kirib keldi. Ishni Yevropadan O‘zbekistonga mahsulot import qilishdan boshlagan. Keyinroq yurtimizda investorlarga berilayotgan imkoniyatdan foydalanib, shu yerda filialini ochgan va 2021-yildan rasman korxona sifatida faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, Shvetsiya, Germaniya va Qozog‘istonda filiallari bor.

— O‘zbekiston juda tez rivojlanayotgan va ulkan iqtisodiy salohiyatga ega mamlakat. Bozori ham o‘suvchan, — deydi “All Time Group” Litva kompaniyasi direktori Edgar Yankelaytes. — Salkam o‘n yildan buyon shu yerdamiz va sohadagi yangilanishlarga bevosita guvoh bo‘lyapmiz. Yaqin yillarda O‘zbekiston Markaziy Osiyoning asosiy nuqtasiga aylanadi. Mamlakatda eksport quvvati ham oshib boryapti. Davlatning mazkur tarmoqni va eksportyorlarni faol qo‘llab-quvvatlashi tufayli bizniki kabi logistika kompaniyalariga ham talab ortmoqda. Shu vaqtgacha eksportyorlar uchun biror katta muammo yoki to‘siq borligini ko‘rmadik. Xorijlik investorlarga munosabat esa butunlay ijobiy. Faoliyatimiz davomida biror qiyinchilikka duch kelmadik. Aksincha, barcha yo‘nalishda davlat qo‘llab-quvvatlaydi. Bunday sharoitda har qanday korxona yanada rivojlanadi. O‘zim ham O‘zbekistonga har 2-3 oyda kelib turaman. Mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlanyapti. Bu bozor yaqin yillarda yanada o‘sib boradi, eksport ham o‘sadi deganidir. Oziq-ovqat mahsulotlarining mazasi esa alohida mavzu.




### Maqsad — milliy brendimizni ommalashtirish

Yurtimizdagi logistika kompaniyalariga qator imtiyozlar berilgan. Eksportga chiqarishda tadbirkorlar xarajati davlat tomonidan qoplab berilyapti. Maqsad — eksportyor korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, mahsulotlarimizga dunyo bozorida doimiy xaridorlar topish, milliy brendimizning jahon bozorida keng ommalashishini ta’minlash.

Dunyo amaliyotiga ko‘ra, yuklarni tashish va yetkazib berishdagi eng arzon vosita yo‘l — dengiz yo‘li. Ammo bizda dengizga chiqishning imkoni yo‘q. Shu bois, havo yo‘llari va temir yo‘l transporti hamda yuk mashinalaridan foydalaniladi. Ularning har biri yetkazish muddati, narxi va boshqa omillarga ko‘ra farq qiladi. Eksportyorlar talabga qarab ulardan birini tanlaydi.

Hamyurtimiz faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniya mijozlarga yuk yetkazib berishning barcha usullarini taklif qiladi. Mahsulotlar O‘zbekistondan asosan yuk mashinalarida chiqib ketadi. Bu aviatransportga nisbatan ancha arzon, temir yo‘lga nisbatan tezroq harakatlanadi. Kompaniyaning o‘ziga tegishli eng zamonaviy yuk mashinalari bor, ammo O‘zbekistonda yuk mashinalarini ijaraga olishda mahalliy transport korxonalari bilan hamkorlik qilinadi. Yuk mashinalari mahsulotni Litvaning Vilnyus shahridagi omborxonagacha yetkazib beradi. Kompaniya u yerdan mahsulotlarni o‘ziga tegishli yuk mashinalariga o‘tkazib, belgilangan Yevropa davlatiga yetkazadi.

— Litvaning Klaypeda degan port shahrida juda katta omborxona ochilyapti, — deydi Behruz Mamajonov. — Davlatimiz rahbarining topshirig‘i bilan endi O‘zbekistondan ham mahsulotlar olib borilib, o‘sha omborxonaga joylashtiriladi va saqlanadi. Bu omborxonadan istalgan eksportyor tegishli tartibda foydalana oladi. Hozir mahsulotlarni ko‘rgazma maydoniga joylash ishlari bajarilyapti. Yevropa davlatlaridagi xaridorlar esa o‘sha yerning o‘zida mahsulotlarimiz bilan tanishib, buyurtma berishi mumkin. Bu mahalliy tadbirkorlarning mahsulot namunalarini xorijga yuborish bilan bog‘liq transport xarajatini tejaydi.

Boshqa jihatdan, logistika kompaniyalari ko‘payishi tufayli yuk mashinasi haydovchilariga ham talab oshyapti. Ayniqsa, Yevropa davlatlarida yoshlar qatlami kamligi bois, o‘zbekistonliklarga ko‘pgina bo‘sh ish o‘rinlari taklif etilmoqda. Masalan, ma’lumotlarga ko‘ra, birgina Germaniyada 1 millionga yaqin katta yuk mashinasi haydovchisi yetishmaydi.

Qolaversa, yurtdoshlarimiz bu yo‘nalishning hadisini olib, xorijda logistika kompaniyalarini ochyapti. Daromadli soha ortidan O‘zbekiston va Yevropa davlatlarini bog‘lab, eksport hajmi o‘sishiga hissa qo‘shmoqda. Bunday korxonalar soni ortib, raqobatning o‘sishi logistika xizmatlari sifati oshishiga xizmat qilmoqda.

**Iroda TOSHMATOVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

---

E’tirof

**Bugungi globallashgan dunyoda energetika sohasi nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat va davlatlarning strategik mustaqilligi kabi muhim mezonlar bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish jarayoni nafaqat zamonaviy talab, balki insoniyatning istiqbolini belgilaydigan muqarrar voqelik sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, gidroenergetika ekologik toza energiya manbai bo‘lishi barobarida murakkab geosiyosiy va iqtisodiy sharoitlarda strategik ahamiyatga ega tizim hamdir.**

# “YASHIL” KELAJAK



## YOXUD “O‘ZBEKGIDROENERGO”NING IQLIM STRATEGIYASI

Keyingi yillarda yurtimizda ushbu yo‘nalishda qator tizimli islohotlar amalga oshirilayotgani xalqaro maydonda ham qiziqishlarga sabab bo‘layotir. Jumladan, jahondagi nufuzli “Sustainable Fitch” (London) xalqaro reyting agentligi “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatini faoliyati to‘liq ekologik barqarorlikka hissa qo‘shayotgan kompaniya sifatida e’tirof etdi.

Ekologik barqarorlikni ta’minlovchi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda strategik ahamiyatga ega. Bu jarayonda “O‘zbekgidroenergo” AJning o‘rni beqiyos. Uning so‘nggi yillardagi faoliyati O‘zbekistonning yangi davrdagi ekologik va iqtisodiy siyosatining yorqin ifodasidir.

Shu bilan birga, “Sustainable Fitch” xalqaro reyting agentligi “O‘zbekgidroenergo”ning ESG reytingi (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv samaradorligi)ni “2” darajada tasdiqladi hamda umumiy balini 72 dan 79 ga oshirdi. Bunday yuqori ko‘rsatkich kompaniyaning iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatishga qo‘shgan ulkan hissasi, shuningdek, 2024-yilda ishlab chiqilgan “Iqlim strategiyasi — 2050” orqali issiqxona gazi chiqindisini qisqartirish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilaganini anglatadi.

Bu, avvalo, mamlakatimizda iqlim o‘zgarishlari masalasi bo‘yicha xalqaro maydonda e’tirof etilarli darajada tizimli ishlar qilinayotganining yaqqol dalilidir. Shu bilan birga, O‘zbekistonning kelajagini ta’minlash yo‘lida ekologik toza energetika tizimiga ustuvor ahamiyat qaratilayotgani, barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiq qolinayotganini ham anglatadi.

“Sustainable Fitch” agentligi ta’kidlaganidek, “O‘zbekgidroenergo” AJ bugun Markaziy Osiyodagi eng yuqori ESG reytingiga ega kompaniya sifatida tan olindi.



Bu natija nafaqat kompaniya faoliyatining samaradorligi, balki O‘zbekistonda barqaror energetika, ekologik mas’uliyat va uzoq muddatli rivojlanish tamoyillariga amal qilinayotganini ham yaqqol tasdiqlaydi.

“O‘zbekgidroenergo” hozir mamlakatimizdagi asosiy gidroenergetika ishlab chiqaruvchisi bo‘lib, 75 ta gidroelektr va 1 ta shamol elektr stansiyasini boshqaradi. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, umumiy quvvati 2256 megavattni tashkil etadi. Bu raqam ortida nafaqat energiya ta’minoti, balki barqaror rivojlanish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga joriy etishdek ulkan maqsad mujassam.

Aksiyadorlik jamiyati 2050-yilgacha mo‘ljallangan iqlim strategiyasini qabul qilgan. Unda Scope 1 va Scope 2 turkumiga kiruvchi issiqxona gazi chiqindisini 2028-yilgacha 20 foiz kamaytirish rejalashtirilgan. Bu hujjat nafaqat texnik dastur, balki falsafiy jihatdan ham muhim qadriyatlarga asoslanadi. Chunki iqlimni asrash bugun insoniyat oldida turgan eng mas’uliyatli vazifalardan biridir. O‘z navbatida, dekarbonizatsiya bo‘yicha bunday uzoq muddatli strategiya O‘zbekistonda ilk bor amalga oshirilayotgani ham alohida ahamiyatga ega.

“O‘zbekgidroenergo” ijtimoiy yo‘nalishda ham mustahkam pozitsiyaga ega. Xodimlar qo‘nimsizligi ko‘rsatkichi pastligi — kompaniyadagi barqaror kadrlar siyosati, samarali boshqaruv va sog‘lom ish muhitining yorqin isbotidir. Bu holat esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarishda samaradorlik va korporativ madaniyatni oshirishga xizmat qiladi.

Korporativ boshqaruvda ham “O‘zbekgidroenergo” AJ mukammal tizim yaratgan. Ikki bosqichli boshqaruv strukturasi, xalqaro ISO standartlari joriy etilishi, samarali risk-menejment mexanizmi — bularning barchasi kompaniyaning ochiqlik va shaffoflikka sodiqligini anglatadi. Yanada muhim jihati — hisobot davrida birorta ham boshqaruv insidenti yoki qonunbuzarlik holati qayd etilmagan.

Bunday yutuqlar tasodif emas. Ular davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, ya’ni ekologik toza energiya, inson kapitali va mas’uliyatli boshqaruv modelini hayotga tatbiq etish orqali amalga oshirilmoqda. Bu yutuqlar nafaqat bugungi iqtisodiy manfaatdorlik, balki ertangi avlodga toza muhit, barqaror energetika va mas’uliyat hissini meros qilib qoldirishga xizmat qiladi.

**Sardor TOLLIBOYEV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



Bizning suhbat

# XAVFSIZ AXBOROT MUHITI



## BOLALAR KONTENTI NIMALARNI O‘Z ICHIGA OLISHI KERAK?

Boshlanishi 1-betda

— Institutimiz zimmasiga tarbiya sohasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirishga qaratilgan muhim vazifalar yuklatilgan, — deydi Xolboy Ibragimov. — Shundan kelib chiqib, Bolalar kontentini rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda yangi kontentlar ssenariylari ishlab chiqilib, tayyorlanayotgan har bir mahsulotning mazmuni va tarbiyaviy yo‘nalishini tahlil qilyapmiz. Bunda milliy g‘urur va milliy qadriyatlarni bolalar ongiga ijobiy yo‘sinda singdirishga urinyapmiz. Chunki bu orqali yosh avlod yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilinadi, ma’naviy immuniteti mustahkamlanadi.

Kontentlarda o‘zbek xalqining ertak va folklori, qahramonlari, buyuk allomalar hayoti, milliy an’ana va urf-odatlari ilmiy-metodik asosda qayta ishlanmoqda. Bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmasi, atrof-muhitni asrash, milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirishga e’tibor qaratilyapti. Ular nafaqat qiziqarli, balki bolalarda ijtimoiy faollik, ezgulik, vatanparvarlik va mehr-oqibat tuyg‘ularini ham tarbiyalaydi.

Eng muhimi, milliy tarbiya kontenti faqat oila va maktab bilan cheklanib qolmaydi. U keng jamoatchilik — mahalla, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda ham faol va keng tarqatilganda, milliy g‘oyalar bolalar ongida uzluksiz mustahkamlanib boradi.

Bolalar kontentlari — kelajak avlodning dunyoqarashi, tarbiyasi va shaxsiy qadriyatlarini shakllantiruvchi eng ta’sirli vosita. Bugungi murakkab va notinch dunyo ham ijobiy, ham salbiy sifatlari bilan tobora globallashib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya vositalari va ulardan foydalanuvchilar soni kun sayin ortib borayotir. Tarqalayotgan axborotlar oqimini esa to‘sib qo‘yish yoki jilovlashning imkoni yo‘q.

Hozirgi sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy raqobatdan chetda qolish mumkin emas. Agar milliy kontentimiz raqamli maydonda kuchli, jozibali va ommaviy tarzda namoyon bo‘lmasa, yoshlarning boshqa madaniy ta’sirlar ostida qolib ketishi ehtimoli yuqori. Demak, bugungi tayyorgarlik darajasi milliy kontent ishlab chiqish va uni global targ‘ib qilishga qanday kuch, g‘oya hamda texnologiyalarni yo‘naltira olishimizga bevosita bog‘liq.

Dunyo tajribasida bolalar mediasi uchun ruhiy va axloqiy standartlar, har bir kontentning g‘oyaviy maqsadi, bolalar uchun himoyalangan xavfsiz axborot muhiti yaratish kabi aniq talablar qo‘yiladi.

Jahonda milliy kontentni baholashning e’tirof etilgan usul va standartlari mavjud. Ya’ni u milliy qadriyatlarni saqlashi, targ‘ib etishi, tarixiy haqiqat va milliy manfaatlarga xizmat qilishi, yosh avlod ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, g‘oyaviy mustaqillik va madaniy suverenitetni ta’minlashi asosida baholanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi va UNESCO xalqaro bolalar mediasini baholash mezonlarini ishlab chiqqan. Bolalar uchun mo‘ljallangan kontentni baholash, tahlil qilish, ongga ta’sir darajasini o‘rganish, ixtisoslashgan ekspertlar guruhini shakllantirish bo‘yicha tegishli ishlar qilinmoqda.

Hozir Janubiy Koreya, Turkiya, Xitoy, Fransiya kabi davlatlar milliy kontentni davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlab, uni ichki va tashqi bozorda ilgari surish,



g‘oyaviy barqarorlikni ta’minlashda samarali foydalanmoqda. Bizda ham bu borada so‘nggi yillarda jiddiy harakatlar kuzatilyapti. Lekin global raqobat juda keskin. Jahon media maydonida g‘oyaviy ta’sir va axborot urushi davom etmoqda. Shuning uchun milliy kontent sifatini oshirish, g‘oyaviy aniqlik va ta’sirchanlikni ta’minlash, yoshlarga qaratilgan samarali medialoyihalarni ko‘paytirish yo‘lida qiladigan ishlarimiz ko‘p. Ayni paytda xalqaro raqobatga to‘liq va qat’iy tayyormiz deb bo‘lmaydi. Bu — dolzarb vazifa.

**— Tug‘ilgan har bir bolani hayot, jamiyat o‘z ma’naviy talablari bilan kutib oladi. Jamiyat o‘sayotgan bola bilan o‘zaro murakkab munosabatlarga kirisha boradi. Bola katta bo‘lganida qo‘yiladigan talablar, ehtiyojlarning murakkab zanjirini ota-ona, pedagoglar yaxshi bilishi kerak. Shunday emasmi?**

— Kimdir “Tarbiya hammaga ma’lum narsa-ku. Vaqti kelsa, katta bo‘lib, o‘z-o‘zidan zo‘r odam bo‘lib ketadi”, der. Lekin biror yaxshi ishning o‘z-o‘zidan bo‘lib qolganini hech kim ko‘rmagan. Oddiy misol: tayyorlanmagan yigit test varaqasini qanday to‘ldirsin? O‘rganmagan qiz ingliz tilida qanday so‘zlasin? Oqibat nimaligi tushuntirilmagan, ko‘rsatilmagan, o‘rgatilmagan farzand qanday qilib oqibatli bo‘lsin? Oqibatli bo‘lmasa, bola aybdormi? Yoki unga oqibatni o‘rgatmay, talab qilayotgan ota-onami?

Tarbiya — bolani baxtli bo‘lishga o‘rgatish. “Nima eksang, shuni o‘rasan”, deydi xalqimiz. Bu maqolni “Nima o‘rishni istasang, shuni ek” deb aytib ko‘raylik. Ana shunda fazilatning ma’nosi oydinlashadi.

XXI asr — intellektual asr. Bilimsizlik salomatlikka tahdidlardan biri sifatida Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti standartiga kiritilgan. Bundan kelib chiqadiki, bolalarning kasal bo‘lishiga asosiy sabablardan biri ota-onalarda tibbiy bilimlar yetishmasligi. Demak, qaysi ota-ona o‘zim, bolalarim sog‘ bo‘lsin desa, tibbiy bilimga ega bo‘lishi shart. Xuddi shuningdek, hayot yo‘llarida qoqilmaslik uchun iqtisodiy, huquqiy bilimlar ham o‘ta zarur.

Tibbiy bilimsizlik salomatlikka tahdid ekan, pedagogik bilimsizlik barkamol avlod tarbiyasiga tahdid, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Pedagogika tarbiya to‘g‘risidagi yagona fan. Chaqaloqni baxtiyor insonga aylantirish ilmi. Bolalar bor ekan, u ham bo‘ladi. O‘qituvchilar millat bolalarini o‘qitadi, tarbiyalaydi, ishlaydi. Biroq pedagogikani ishlatish uchun o‘rganish talab qilinadi.

Bola ma’naviyati — serhosil tuproq. Unga nima ekilsa, o‘sib chiqadi, hosil beradi. Qancha erta ekilsa, shuncha erta hosilga kiradi. Gul ham, afsuski, ajriq ham. Yosh bolangiz xushmuomala bo‘lsa, choyni chiroyli qilib damlab, quyib bersa, sizga, qarindoshu mahalladoshlaringizga mehribon bo‘lsa. Bir so‘zli, qat’iyatli, ham ma’nan, ham moddiy boylikka ega bo‘lsa. Qanday yaxshi, qanday maroqli?! Shunday emasmi? Bunday sifatni shakllantirish har birimizdan pedagogik bilim talab qiladi.

**— Tarbiyaning eng ta’sirchan metodi nima?**

— Tarbiyaning ta’riflari ko‘p. Har birining o‘z o‘rni bor. Bir narsa aniqki, tarbiya xuddi biznes, tibbiyot, quruvchilik kabi aniq natijaga qaratilgan amaliy ish.

Ba’zilar tarbiya haqida “Bolani yoniga o‘tqazib, ibratli nasihatlar qilish kerak”, deyishadi. Bu ham foydali. Bemorga sog‘liqni saqlash yo‘llarini yaxshilab tushuntirish kabi ta’sir qilishi mumkin. Ammo nasihat nazariy tushuncha beradi. Tarbiya ana shu nazariy tushunchalarga asoslangan fazilatlarni yaratadi. Bolada biror fazilatni ko‘rishni istasak, dastlab unga bu fazilatni yotig‘i bilan tushuntiramiz. Undan so‘ng shu fazilatning eng mukammal tarzini ko‘rsatib, o‘rgatib, mashq qildirib, takrorlatib, odatga aylantirib borish kerak bo‘ladi.

Abu Nasr Forobiy o‘zining buyuk asariga “Fozil odamlar shahri” deb nom bergan. Bu fazilatli odamlar, ya’ni fozillar yashaydigan joy, yaxshi tarbiyalangan, yuksak ma’naviyatli odamlar istiqomat qiladigan shahar degani.

Ota-ona bolasiga ism qidirayotganida o‘z orzulariga eng mosini tanlaydi. Agar tahlil qilinsa, har bir o‘zbekcha ism bir fazilat ekani ko‘rinadi. Misol uchun, Olim, Omil, Fazilat, Fozil degan o‘zbek ismlarini olaylik. Olim — bilimli, Omil — bilimiga amal qiluvchi, Fozil — fazilatli odam degani.

Mehribonlik, jasurlik, vatanparvarlik, daxldorlik — fazilatlar. Ular odamlarning turli vaziyatlarda qilgan xatti-harakatlarida ko‘rinadi, aytgan gaplarida eshitiladi, seziladi. Demak, tarbiya odamlarning fazilatlarini va fazilatlar majmui — xulqini yaratadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Alisher Navoiy bobomiz: “Aql ila olam yuzin obod qil, xulq ila odam elini shod qil”, degan.

Sizdan bir kishi “Iltimos, o‘zingiz ko‘rmagan xatti-harakatni bajarib ko‘rsating”, desa nima qilasiz? “Bu nima deganingiz”, deysiz taajjub bilan. Hech narsani ko‘rsata olmaysiz. Chunki siz ko‘rsatmoqchi bo‘lgan har qanday xatti-harakatni yo real, yo virtual hayotda qachondir, kimdadir ko‘rgan bo‘lib chiqasiz. Yoki siz ko‘rsatgan xatti-harakat sun’iy, hayotiy mazmuni yo‘q harakatdan boshqa narsani anglatmaydi. Chunki bu harakatni ko‘rmagansiz. Bola ham shunday. Ko‘rgan narsasini qiladi. Ko‘rmagan narsasini qilolmaydi.

Fazilat odamga qayta-qayta ko‘rish, eshitish orqali singadi. Bola kimda, qaysi xatti-harakatlarni ko‘p ko‘rgan va takrorlagan bo‘lsa, ana shular uning xulqida chuqur iz qoldiradi. Uning xatti-harakatlarida “yuzaga qaytib chiqadi”.

Tarbiya — uzluksiz jarayon, to‘xtamaydi, davom etadi. Tarbiyaning ikki ravishi bor. Biri — pedagogik muassasalar — maktab, kollejlarda pedagoglar olib boradigan maqsadli, rejali, aniq natijaga erishishga qaratilgan tarbiya. Ikkinchisi — rejalashtirilmagan, hayot tarbiyasi. Buni bolaning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy tajriba, qadriyatlar interiorizatsiyasi jarayoni, desa ham bo‘ladi.




**— Bu nimani anglatadi?**

— Masalan, bolangiz uydan maktabga 30 daqiqali yo‘lni bosib boradi. Qaytishda ham shunday. Demak, u har kuni 60 daqiqa davomida notanish odamlarni, vaziyat va manzaralarni ko‘radi. Har xil yaxshi-yomon voqealar, fikrlar, gaplar, namunalar ta’siriga duch keladi. Ertaga maktabga kelayotib, bolamiz kimlarni, nimalarni ko‘rishini bilmaymiz. Demak, har kuni bolamizni 60 daqiqali tashkil etilmagan tarbiya (interiorizatsiya) jarayoni kutib turadi.

Bolamiz turli yoshdagi odamlarning qanday kiyinganini, bir-biriga muomalasini, to‘g‘ri-noto‘g‘ri qiliqlarini ko‘radi. Qayd etadi. Shuning uchun biz, kattalar ko‘cha-ko‘yda, to‘y-ma’rakada, transportda ketayotganimizda ana shu nozik jarayonni doim his qilib turishimiz kerak. “Bolalar, yoshlar mendan ibrat olyapti. Hozir menga ko‘zi tushayotgan barcha — mahalla, qishloq, ko‘chadagi tanish-notanish bolalarga ibrat bo‘lyapman” degan mas’uliyat doim yodimizda turishi zarur.

**— Xalqimizda “Yuz marta eshitgandan bir marta ko‘rgan yaxshi” degan maqol bor. Buning tarbiyaga aloqasi bormi?**

— Bo‘lganda qandoq! Bu bolangizda qanday xulqni ko‘rishni istasangiz, avval unga o‘zingiz namuna bo‘ling degani. Bir necha marta. Bolangiz ham sizga bir necha marta takrorlab ko‘rsatsin. Ana o‘shanda bu fazilat farzandingizning odatiga aylanadi. Ya’ni har doim tayyor turadi. Namoyon bo‘ladi.

Xullas, bolaga nimani aytgan bo‘lsangiz, o‘sha narsalarni eshitasiz. Nimalarni qilib ko‘rsatib, mashq qildirgan bo‘lsangiz, o‘sha narsalarni ko‘rasiz. Chunki ko‘rsatish, mashq qildirish tarbiyaning asosiy metodlari.

**— Oila tarbiyasida qanday kamchiliklar uchramoqda?**

— Bolalar xulqi — oyna. Bu bizning pedagogik kompetentliligimizni ko‘rsatib turadi. Shuning uchun oynadan uyaltiradigan, odamni ranjitadigan narsalarni ko‘rsak, bolalarimizdan ranjimaylik. Chunki sababchi o‘zimiz. Shunday ekan, bolalar xulqidagi kamchiliklar sabablarini bilish xuddi yutuqlar sababini bilishday foydali.

Asosiy sabab — pedagogik loqaydlik. Ya’ni o‘z bolasining tarbiyasiga e’tiborsizlik. Bolamiz shamollasa, yelib-yugurib shifokor maslahati, retsepti, dori-darmonlarini topib davolaymiz. Biroq xulq, ma’naviy kasallikni ko‘rsak ham pedagog maslahati, tavsiyalari, metodlarini topishga shoshilmaymiz. Bolamiz bir ishkal chiqargandan so‘ng u bilan “gaplashib qo‘yamiz”. Qaytib bunday qilmaslikni aytamiz.

Shu o‘rinda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol esga tushadi. Bu maqol tarbiyaning “ko‘rsatish-ko‘rish” mexanizmini ta’kidlash uchun yaralgan bo‘lsa kerak. Chunki “ko‘rganini qiladi” degan xulosa berilmoqda.

Bundan 50-100 yil oldin o‘smirlar har kuni ota-onasini, qo‘shnilarini, qarindoshlarini ko‘rgan. Ularning gaplarini eshitgan, taqlid qilgan. Ularga o‘xshab ketgan. Bugungi bolalar esa real do‘stlaridan ko‘ra, “virtual do‘stlarini” ko‘proq ko‘rayotir. Qo‘lidagi telefonlar qayta-qayta ajnabiy xulq namunalarini taklif qilayotgani sir emas. Bularning barchasi milliy tarbiya borasida hafsala, quntimizni oshirishni taqozo qilayotir.

Siz kun davomida uyingizda bolalaringizga o‘zingizni beixtiyor “taqdimot” qilasiz. Bolangiz ziyrak. Qiyofangizdagi, ovozingizdagi har bir o‘zgarishni tuyadi. Ana o‘shanda siz uni o‘zingiz bilmagan holda beixtiyor tarbiyalayotgan bo‘lasiz. Bolangiz ana shu vaziyatlarni kuzatadi, ko‘zi bilan “videoga oladi”. Xulqiy xotirasiga “yuklab oladi”.

Shunga o‘xshagan ajoyib bir misolni shaxmat bo‘yicha jahon chempionlari Islom va Javohir Sindorovlarning bobosi professor Komiljon Sindorovdan eshitdim.

“Men ilgari bu narsaga e’tibor bermas ekanman. Nevaralarimni mashinaga o‘tqazib, mashg‘ulotlarga olib yurganimda uch oylar chamasi “Bozurgoni” ashulasini qo‘yib, borib kelar edim. Keyin nima bo‘ldiyu, o‘sha disk yo‘qolib qoldi. Radiodan boshqa qo‘shiqlarni qo‘yib yurdim. Bir kuni mashg‘ulotdan qaytayotsak, Islomjon “Bobo, “Nega “Manga ko‘rguzub”ni qo‘ymayapsiz? O‘sha yaxshi-ku. O‘shani qo‘ying”, dedi. Hayron qoldim. Beixtiyor “Nima eksang, shuni o‘rasan” degan hikmatni esladim.

Bolaning qulog‘iga, ko‘ziga nimani singdirib borsangiz, o‘sha narsaga ehtiyoj paydo bo‘lib, o‘sib borarkan. Ma’naviy ehtiyoj ekan bu. 9 yoshli bolada mumtoz, og‘ir qo‘shiqqa ehtiyoj qanday paydo bo‘lganini o‘z hayotimda ko‘rdim. O‘zim mumtoz qo‘shiqlarga ishqibozman. Demak, bu bilan nabiramda “mumtoz qo‘shiqqa ehtiyoj”ni shakllantirayotgan ekanman. Buni menga nabiramning qalbidagi o‘zbek mumtoz qo‘shig‘iga ma’naviy ehtiyoj yaqqol ko‘rsatdi.

Hozir o‘zbek mumtoz va an’anaviy qo‘shiqlarini eshittirib, oshno qilib boryapman. Zimdan kuzataman. Ular mumtoz qo‘shiqlarimizni hayrat bilan tinglab borishayotir. O‘zimning qiziqishim yanada ortib ketdi”, dedi.

Bugungi bolalar kechagi avloddan farq qiladi, ular raqamli dunyoda o‘smoqda. Shuning uchun milliy kontent goh an’anaviy shaklda, ba’zan esa multimedia, mobil ilovalar, kompyuter o‘yinlari va interfaol mashg‘ulotlar orqali taqdim etilsa, samara berishi shubhasiz. Buning tagida bitta muhim g‘oya — millat kelajagini asrab qolish, milliy mafkuraviy suverenitetni ta’minlash yotibdi.

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.**

---

Jarayon

# XALQARO TA’LIM DASTURLARIGA TENG IMKONIYATLAR

**Joriy yilning 8-oktabridan mamlakatimiz bo‘ylab xalqaro ta’lim dasturlarini ommalashtirish, yoshlarni global akademik hamjamiyatga jalb etish va O‘zbekistonning inson kapitalini mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli ta’lim marafoni — “El-yurt umidi” jamg‘armasi kunlari boshlandi. Ayni vaqtda ushbu marafon hududlar bo‘ylab davom etmoqda.**




Mazkur tashabbus doirasida imkon qadar ko‘proq iqtidorli yigit-qizlar, ayniqsa, chekka hududlar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari vakillari dunyoning yetakchi universitetlarida ta’lim olish imkoniyatlari haqida ma’lumot olishini ta’minlash maqsad qilingan.

Albatta, yurtimizda iqtidorli yoshlar va mutaxassislarning xorijdagi nufuzli ta’lim dargohlarida tahsil olishi, davlat xizmatchilarini o‘qitish, stajirovkasini tashkil etish orqali ularning kasbiy ko‘nikmalari, bilimi hamda tajribasini yanada oshirish strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Shu maqsadda 2025-yil 5-mayda Prezidentimizning “Iqtidorli mutaxassislarning xorijda ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash, ularda kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra, mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi etib qayta tashkil etildi.

Shu yilning 1-sentabridan boshlab iqtisodiyotning muhim tarmoqlari va boshqa yo‘nalishlarda jamg‘arma mablag‘lari hisobidan maqsadli stajirovka dasturi amalga oshirilmoqda.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi kunlari doirasida Navoiy viloyatida tashkil etilgan tadbirlarda yoshlarga dunyoning TOP universitetlarida ta’lim olish uchun e’lon qilingan tanlovlar xususida ma’lumotlar berilib, taqdimotlar qilindi. Nomzodlarga hujjat topshirish jarayonida yanada qulay shart-sharoit yaratish maqsadida jamg‘arma tomonidan onlayn platforma va boshqa imkoniyatlar haqida zarur tavsiyalar berildi.

Bakalavriat bo‘yicha QS (Quacquarelli Symonds) va magistratura va doktorantura yo‘nalishida THE (The Times Higher Education) xalqaro reyting tashkilotlarining global reytingi natijalariga ko‘ra, birinchi 100 talikka kiritilgan xorijiy oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qish xarajatlari to‘liq qoplanadigan grant asosida qabul qilingan nomzodlarga jamg‘arma stipendiyalari tanlovlarsiz ajratiladi. Shuningdek, birinchi 300 talikka kiritilgan xorijiy oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga qabul qilingan nomzodlarga xalqaro transport hamda turar joy xarajatlari uchun jamg‘arma stipendiyalari tanlovlarsiz beriladi. Bundan tashqari, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning birinchi 20 talikka kiritilgan xorijiy oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qish xarajatlari kamida 50 foiz qoplanadigan grant asosida qabul qilingan bitiruvchilariga ham jamg‘arma stipendiyalari tanlovlarsiz ajratiladi.

— 2018-2025-yillarda “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan 2300 ga yaqin stipendiat 40 dan ziyod davlatga o‘qishga yuborilgan, — deydi Boshqaruv samaradorligi agentligining Navoiy viloyati filiali inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo‘limi bosh inspektori Dilshod Qodirov. — Hozirgacha ularning 1400 ga yaqini O‘zbekistonga qaytib, turli sohalarda ishlamoqda. Bugungi kunda 700 ga yaqin stipendiat “TOP-300” talikdagi nufuzli universitetlarda ta’lim olyapti. Navoiy viloyatidan 34 stipendiat AQSH, Buyuk Britaniya, Italiya, Avstraliya, Xitoy va Rossiyaning nufuzli oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lsa, 40 dan ortiq malakali mutaxassis vazirlik va idoralar, oliy ta’lim hamda sog‘liqni saqlash muassasalarida samarali faoliyat yuritmoqda.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan 2025/2026-o‘quv yilida nufuzli xorijiy universitetlarda ta’lim olish uchun bakalavriat ta’lim dasturlari uchun 130 ta, magistratura uchun 220 ta, doktorantura uchun 100 ta o‘ringa stipendiyalar ajratilishi rejalashtirgan. 2025-yilning birinchi ochiq stipendiya tanlovi yakunlari bo‘yicha 173 stipendiat dunyoning yetakchi universitetlariga o‘qishga kirdi.

Yurtimiz bo‘ylab davom etayotgan “El-yurt umidi” jamg‘armasi kunlari doirasida jamg‘arma xodimlari va stipendiatlari bilan bo‘lib o‘tayotgan muloqotlar, mahorat darslari va motivatsion uchrashuvlar yoshlarga ijtimoiy mavqei yoki oilasining daromad darajasidan qat’i nazar, dunyoning nufuzli oliy ta’lim muassasalariga yo‘l ochiqligini ko‘rsatadi.

**G‘olib ABDUSALOMOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri**




Albatta o‘qing!

# So‘z dalolati

## (“So‘z xususida so‘z” kitobidan)

III

Gadoiyning bir g‘azali:

***Vasli nigoru fasli bahoru***
***sharobi nob***
***Har kimga dast bersa,***
***zihe baxti komyob,***

degan matla bilan boshlanadi. Bundagi “vasli nigor”dan murod maqsadga erishish, “fasli bahor”dan maqsad hayot bahoridir, “sharobi nob” esa sof ma’naviy muhabbatdir. Shoir mana shu narsa kishiga muyassar bo‘lsa, bu kam topiladigan ulug‘ bir baxt deydi.

“May”u “mayxona” va “soqiy”u “paymona” kabi so‘zlarning mumtoz adabiyotda istiora sifatida qo‘llanishini bilmaganlar, masalan, Navoiyning:

***Zohid, senga huru***
***menga jonona kerak,***
***Jannat senga bo‘lsun,***
***menga mayxona kerak.***
***Mayxona aro soqiyu paymona kerak,***
***Paymona necha bo‘lsa, to‘la yana kerak,***

degan ruboiysini o‘qiganda Navoiy ichkilik tarafdori ekan degan xulosaga kelishi mumkin. Ko‘pgina yoshlarimiz Sharq adabiyoti klassiklarining she’rlarini o‘qiganda may, sharob kabi so‘zlarning istiora sifatida qo‘llanishini hisobga olmaslik natijasida ichkilik va klassik shoirlarimizning ichkilikka bo‘lgan munosabati haqida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘ladilar. Kaminaning o‘zi ham bu haqda birlamchi manbalarni mutolaa qilgunga qadar Umar Xayyomni mayparastlarning piri deb o‘ylaganman. Abdurahmon Jomiyning “Ey bodaparastan dari mayxona kujast”, ya’ni “Ey mayparastlar, mayxonaning eshigi qayerda”, Navoiyning “Kofirmen agar qilmasam oshom qadah” kabi she’rlarini o‘qiganimda bular ichkilikdan parhez qilmagan ekan degan fikrda bo‘lganman.

Vaholanki, u azizlar jamiyatni amalparastlik, nafsparastlik, xurofot, urug‘chilik va diniy taassub natijasida kelib chiqadigan illatlardan davolashga harakat qilgan haqparastlar ekan.

Jamiyatni sog‘lomlashtirish fikrida bo‘lgan ulug‘ bobolarimiz ichkilik, giyohvandlikning hamma turlariga qarshi bo‘lganlar. Navoiy “Majolis un-nafois” asarida bir shoirning yaxshi she’rlari namunasi sifatida:

***Arrayi bargi kanop,***
***ey bangiyon e-on tez shud,***
***To burad behi niholi***
***aqlu iymoni shumo,***

degan baytni keltiradi. Bu baytning mazmuni bunday:

Ey bangilar, ya’ni nasha chekuvchilar, sizning aql va kelajakka amalingiz oqibatiga bo‘lgan ishonchingiz ko‘chatining tomirini qirqish uchun nasha butasining bargi o‘tkir arra bo‘ldi.

Bu uslub nuqtayi nazaridan shoirona husni ta’lildir. Lekin bu husni ta’lil faqat she’r nuqtayi nazaridan emas, ilmiy nuqtayi nazardan ham to‘g‘ridir. Chunki nasha, mutaxassislar fikricha, kishining miyasini ishdan chiqarib, aqliy faoliyatini g‘oyat darajada susaytiradi. Eng yomon tomoni shuki, ichkilik va giyohlar naslga ham ta’sir qiladi. Gunohsiz ma’sumlarning kasalmand bo‘lib tug‘ilishiga sababchi bo‘lish jinoyat emasmi?!

Yetuk san’atkorlar, jumladan, mumtoz shoirlar asarini o‘qiganda, uning ikki jihatini — ma’no va suvratini, ya’ni mazmun va shaklini hisobga olish va ma’noning birlamchiligini esdan chiqarmaslik kerak. Navoiy “Ma’no ahli ma’noga, suvrat ahli suvratga boqar”, deydi. Binobarin, asarni to‘g‘ri tushunish uchun uning ma’nosiga yetib borish kerak. “May” so‘zi va uning ma’nodoshlari asarning ma’nosida kelganda ichkilikni bildiradi. Lekin suvratda kelganda haqiqat ma’rifati, unga bo‘lgan ishqu muhabbat va uni idrok qilgandagi lazzatni bildiradi. Bu holda “may” so‘zi istiora tarzida qo‘llanadi, ya’ni “may” so‘zi mazmunan “haqiqat mayi”, “ishq mayi” va “vasl mayi” degan iboralarga teng bo‘ladi. “Haqiqat mayi”



deyilsa, tashbih, ya’ni o‘xshatish bo‘ladi. Iborani qisqartirib “may” deyilsa, istiora vujudga keladi. Demak, istiora o‘xshatish natijasi ekan. Bir narsani ikkinchi narsaga o‘xshatish uchun asos kerak. Ularning o‘xshash jihati bo‘lsa, shu o‘xshatishga asos bo‘ladi. O‘xshatishga asos bo‘lgan o‘xshash jihat yoki jihatlarni uslubshunoslar “tashbih vajhi” deb ataydilar. Mehru muhabbat bilan may o‘rtasida qanday o‘xshashlik bor degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga Abdurahmon Jomiy “Lavomi’” asarida javob berib, may bilan muhabbat orasidagi o‘xshashliklardan o‘ntasini bayon qilgan.

Birinchisi, may o‘zining asliy o‘rni bo‘lmish xum ichidan o‘zganing ta’sirisiz o‘zidan o‘zi qaynab, o‘zini ko‘rsatishga harakat qilganidek, oshiqlar ko‘nglidagi yashirin ishq ham tashqi bir sababsiz g‘alayon qilib, zuhur etishga intiladi.

Ikkinchisi, may o‘z zoti haddida muayyan bir shaklga ega emas, qaysi idishga quyilsa, shu idishning ichki shaklini oladi. Shuningdek, ishq aslan mutlaq bo‘lib, uning zuhuri muhabbat ahlining qobiliyati va iste’dodiga yarasha sodir bo‘ladi. Oshiqlar orasidagi tafovut ishqning zotiy xususiyatiga emas, ularning ko‘ngil idishiga bog‘liqdir.

Uchinchi o‘xshashlik shundan iboratki, mayning ham, ishqning ham siroyati yalpi jarayondan iboratdir. May kishining hamma a’zosiga ta’sir qilganidek, ishq ham oshiqning qonu joniga kirib, uning butun vujudini egallab oladi.

To‘rtinchisi, may o‘zining ichuvchisini, ishq sevguchini mardu saxiy qilib qo‘yadi. Ammo may masti pulni ayamasa, ishq masti jonu jahonini, boru yo‘g‘ini baxshida qiladi.

Beshinchi o‘xshashlik — may ham, ishq ham kishini qo‘rqmas va botir qilib qo‘yadi. Lekin may botirligi oqibatni ko‘ruvchi aqlning mag‘lub bo‘lishidan bo‘lsa, ishq shijoati haqiqat nurining g‘olibligidandir. Birinchisi shaxsni falokatu halokatga olib boradi, ikkinchisi abadiy hayotu saodatga boshqaradi.

Oltinchisi, may ham, ishq ham kishi boshidan kibru havoni uchiradi va niyozu tavozuga tushiradi. Biroq ichkilikning oqibati xorligu razolatdir, pok ishq natijasi izzatu sharofatdir.

Yettinchisi, may ham, ishq ham sirni fosh qiladi. Asrlar davomida ayon bo‘lgan haqiqatu ma’rifat sirlarini ishq yuzaga chiqargan.

Sakkizinchisi, may ham, ishq ham kishini behud qiladi. Ammo may behushligi nodonlik va g‘aflatning eng tuban darajasidir, ishq behushligi esa sezgirlik va ogohlikning eng oliy martabasidir.

To‘qqizinchisi, mayparast mayni ichgan sari yana ko‘proq ichkisi keladi, ishqparast ham ishq dardiga mubtalo bo‘lgan sari yana ortiqroq berila boradi. Lekin ichuvchi borgan sari odamiylik qiyofasini yo‘qota boradi, sevguchining esa insoniy fazilatlari orta boradi.

O‘ninchisi, may ham, ishq ham nomusu hayo pardasini ko‘taradi. Biroq ichgan o‘zidan o‘zgani haqorat qilib, xalqqa ozor berishdan uyalmaydi, sevgan esa o‘zgalar uchun o‘zini xoru zor etishdan or qilmaydi.

Demak, ishqning may bilan o‘xshash jihatlari ko‘p, lekin oqibat jihatidan ular bir-biriga tamoman zid.

Natija e’tibori bilan may zahr va ishq no‘sh ekan, nima uchun ishqni may bilan ta’bir qilinadi degan savol tug‘ilishi ham tabiiydir. Buning javobi bunday:

Tajribasiz yoshlarning tasavvurida ichkilik bor ne’matlarning eng oliysi va mastlik lazzatlarning lazzatidir. Agar ichmay havas qiluvchilarni ham hisobga olsak, bunday xato tasavvurga ega bo‘lganlar dunyoda ko‘p. Binobarin, ishqni “may” deb atalganda birinchidan, mavzuga ko‘pchilikning diqqati tortilgan bo‘ladi, ikkinchidan, may bilan ishq orasidagi tashqi o‘xshashlik bilan ichki ziddiyat lazzattalablarga ravshan bo‘lib, mutlaq lazzat haqiqat muhabbatida va uni idrok etishda ekani ayon bo‘ladi.

Shu yo‘sinda shoir hamma izlagan, izlayotgan va izlaydigan baxtu saodat va hazzu rohat ichkilikda emas, ishqda, ya’ni haqiqatu ma’rifatning kuchli jozibasida ekanini oshkor qilib, haqparastni ham, mayparastni ham o‘z tarbiyasi ostiga oladi.

**May va mayxonaning ramziy ma’nolari ayon bo‘ldi. Navoiyning “menga mayxona kerak” deganda uning qovoqxona yoki vinoxona, umuman, ichkilik bor joyni nazarda tutmagani ma’lum bo‘ldi. Navoiy o‘z salaflari singari “mayxona” deb ma’rifat hosil bo‘ladigan yerni tushunar va uni jannatdan afzal ko‘rar ekan. Mazkur ruboiyda “jonona” degan so‘z ham bor bo‘lib, u “hur” so‘ziga qarama-qarshi qo‘yilgan. Endi shuni ham izohlab bersak, ruboiyning sharhi mukammal bo‘ladi va boshqa savolga o‘rin qolmaydi.**

May va mayxonaning ramziy ma’nolari ayon bo‘ldi. Navoiyning “menga mayxona kerak” deganda uning qovoqxona yoki vinoxona, umuman, ichkilik bor joyni nazarda tutmagani ma’lum bo‘ldi. Navoiy o‘z salaflari singari “mayxona” deb ma’rifat hosil bo‘ladigan yerni tushunar va uni jannatdan afzal ko‘rar ekan. Mazkur ruboiyda “jonona” degan so‘z ham bor bo‘lib, u “hur” so‘ziga qarama-qarshi qo‘yilgan. Endi shuni ham izohlab bersak, ruboiyning sharhi mukammal bo‘ladi va boshqa savolga o‘rin qolmaydi.

“Hur” so‘zi “havro” so‘zining ko‘pligi bo‘lib, sochi, qoshi, kiprigi qop-qora, ko‘zi ham timqora va katta bo‘lgan oppoq qiz “havro” deb ataladi. Diniy e’tiqodga ko‘ra, jannat qizlari “havro” ko‘rinishidadir. Binobarin, “hur” so‘zi jannat qizlari degan ma’noda ham qo‘llanadi.

Zohid oxirat, jumladan, jannatu hur talabida yoki shu bahonada xotin va farzandlaridan kechgan kishi. Navoiy zohid o‘zining g‘ayriinsoniy qilmishi va g‘arazli amali bilan o‘zini o‘zgalardan ustun hisoblagani uchun uni tanqid qilgan.

“Jonona” so‘zidagi oxirgi “a” “zamona” so‘zidagi kabi aniqlikni bildiradi. Agar aniqligini nazarga olmasak, “jonon” bilan “jonona” so‘zlari ma’no jihatidan tengdir.



“Jonon” so‘zidagi “on” esa nisbat bildiradi. Demak, “jonon” jonga tegishli degani, “jonona” jonga tegishli muayyan vujud yoki shaxs degani. Mana shu ma’noga asosan, “jonona” so‘zi ma’shuq ma’nosida ham qo‘llanadi. “Jonon” so‘zi ham otlashgan holda “jonona” so‘zi o‘rnida ham ishlatiladi. Aslida, “jonon” bilan “jonona” o‘rtasida nomuayyanlik va muayyanlik yoki umumiylik va xoslikda farq bor.

Falsafiy she’rda “jonona” yoki “jonon” deganda borliqning koinot va undagi mavjudotning uzluksiz harakatini ta’minlab bor qilib turish sifati tushuniladi. Buni vujudning qayyumiyat sifati deyiladi. Qayyumiyatning bir ko‘rinishi fizikada “saqlanish qonuni” deb ataladi. “Jonona” va “jonon” so‘zlarining bu ma’nosi mazkur sifatni jonga o‘xshatib, uni borliqning joni deb tasavvur qilish yoki tushuntirish natijasida vujudga keladi.

* * *

Navoiyning “bemor” so‘zi istiora tarzida ishlatilgan quyidagi bayti bor:

***Sunbuli zulfi agar oshuftadur***
***ayb etmakim,***
***Gul yuzida yotqan ikki nozanin***
***bemori bor.***

Bu baytdagi “bemor” so‘zining ma’nosi tushuntirilmasa, Kishining yuzida ham bemor yotadimi?” degan savol yoki baytning to‘g‘riligiga shubha tug‘ilishi tabiiydir. Binobarin, mazkur savolga javob berib, shubhani bartaraf etamiz va bu shohbaytning mazmunidan bahra olamiz.

Yuqoridagi baytda zulf, ya’ni manglay va chakka atrofidagi soch sunbulga o‘xshatilgan. Soch sunbulga ikki jihatdan o‘xshatiladi. Shakl va xushbo‘ylik jihatlaridan. Chunki sunbul shaklan sochga o‘xshaydi, xushbo‘y hidi ham bor. Mana shu sunbulsifat zulf oshufta, ya’ni parishon deyilgan va bunday deyishga uning to‘zg‘ib turgan holati asos bo‘lgan. Parishonlikni kishining ruhiy holatiga qiyoslanganda, u tashvish natijasi bo‘lishi mumkin. Shunga binoan, parishon zulf boshiga tashvish tushib parishonhol bo‘lgan kishiga o‘xshaydi.

Shaxsning tashvishiga yaqin kishisining bemorligi sabab bo‘lishi mumkin. Endi zulfning bemori kim? Uning bir emas, ikkita bemori bor. Buning ustiga, ular nozanin, ya’ni nozik va erka bo‘lib, gul yuz ustidadirlar. Ularning vaziyati ham “yotmoq” fe’li bilan ifodalanib, “bemorlik” alomati ham qayd qilingan. Bemordan murod esa ko‘z bo‘lib, o‘ta suzuk ko‘zga istiora tarzida mumtoz adabiyotda “bemor” so‘zi ishlatiladi. Suzuk ko‘z “usruk”, “ulos”, “mastona”, “xumor”, “maxmur” kabi so‘zlar bilan sifatlanadi. Agar ko‘z o‘ta suzuk bo‘lsa yoki shoir mubolag‘a qilsa, “bemor” so‘zi istiora etiladi.

Endi “ayb etma” iborasiga diqqat qiling. Bu yerdagi “ayb etma” iborasi sabab munosabatini ifodalash uchun ishlatilgan, chunki ikkinchi misrada ta’lil bor, ya’ni parishonlikning sababi aytilgan va bu ta’lil Navoiy ta’birida husni ta’lil bo‘lib chiqqan. Agar notiq biror voqeaga go‘zal qilib shoirona sabab ko‘rsatsa, bu san’atga “husni ta’lil” deyiladi. “Ta’lil”ning lug‘aviy ma’nosi illatini aytish, ya’ni sabab keltirishdir. “Illat” so‘zining sabab ma’nosi ham bor. Mazkur baytdagi husni ta’lil shundan iboratki, nuktapardoz shoirimiz zulfning oshuftaligiga ko‘zning suzukligini sabab qilib ko‘rsatgan va uni mahorat bilan shoirona isbotlagan. Bunga “bemor” so‘zining haqiqiy va mustaor ma’nolaridan foydalanib erishgan.

Endi nima uchun shoir “sabab” munosabatini aniq ifodalovchi, “ne uchunkim”, “negakim”, “zero”, “ul sababdankim”, “sabab bu kim” singari so‘z va iboralardan foydalanmagan degan savol tug‘ilishi tabiiy va bunga yuzaki qaralsa, “ayb etma” iborasining sabab bildiruvchi so‘zlar o‘rnida ishlatilishi ayb, ya’ni nuqson bo‘lib ko‘rinishi ham mumkin.

Biroq chuqurroq mulohaza qilinsa, bunda ham ayb emas, san’at bor. Chunki “ayb etma” iborasining bu o‘rinda qo‘llanishining mazkur va boshqa sabab munosabatini ifodalovchi so‘zlardan birini iste’mol etilishiga nisbatan ham mazmunan, ham shaklan afzalligi bor. Mazmuniy afzalligi shundaki, shoir aybjo‘y ag‘yorga, ya’ni shoirning manzuridan ayb izlovchi yot kishilarga tanbeh bergan.

Gap shundaki, kishidan ayb topishga odatlangan yoki o‘zgalarning aybini ko‘rganda yo eshitganda xursand bo‘ladigan ichi qora kimsalar qasddan yoxud eshitganini ko‘rganiga tatbiq qilolmaydigan, yuzaki mulohaza qiladigan, aqli ko‘zida bo‘lgan taqlidchilar jahlan haqiqiy go‘zallikni yuzaki, soxta dalillar bilan inkor qiladilar.

Nodonligi tufayli bilmasdan haqiqiy go‘zallikni inkor qilg‘uchini ma’zur tutib, qasddan, ya’ni bila turib atayin hasad yoki takabbur yuzasidan husnni inkor etuvchini olsak, u o‘z da’vosini mantiqan bunday isbotlaydi:

Tartiblilik, saranjomlik, tekislik husn, go‘zallik shartlaridan biri, tartibsizlik, besaranjomlik, notekislik, qubh, xunuklik alomatlaridan biri, qisqacha qilib aytganda, jamlik, ya’ni yig‘iqlik husn, parishonlik, ya’ni tarqoqlik qubh. Biz jamlik va parishonlikka mutlaq hodisa sifatida qaraganimizda, mana shu hukm to‘g‘ri bo‘ladi. Ammo bu hukmni muayyan hodisalarga nisbatan istisnosiz ravishda qo‘llab bo‘lmaydi. Shunday hodisalar borki, unda mazkur hukmning aksi hukm surishi mumkin. Buni ravshanlashtirish uchun soddaroq misol keltiramiz. Agar mutlaq hodisa sifatida hukm chiqaradigan bo‘lsak, “Ilon zahri kishini o‘ldiradi” deymiz, ammo muayyan sharoitni hisobga olsak, “Ilon zahri kishining sog‘lig‘ini tiklaydi” deyishimiz mumkin. Mutlaq hodisa sifatida hukm chiqarganda, “Qand kishiga ozuq va dori” deymiz, lekin u qand kasaliga mubtalo bo‘lgan kishini zaharlaydi va oldi olinmasa, halok qilishi mumkin. Suv mutlaq hayot manbai, ammo ayrim sharoitda u o‘lim, halokatu vayronlik manbai. Yana bir misol, yig‘lamoq, umuman olganda, noxushlik alomati, kulmoq shodlik alomati, ammo kishi shodlik natijasida yig‘lashi, g‘azab natijasida kulib qo‘yishi mumkin.

Shuningdek, parishonlik ayrim hollarda go‘zallik alomati bo‘la olishi mumkin. Ammo boyagi ichi qora g‘ayr o‘z raqibiga ustun kelish niyatida mutlaq hodisaga oid hukmni uning aksi joiz bo‘lgan holda ham dalil qilib keltiradi. Shuni ham aytish kerakki, unday kishi o‘zining do‘stini dushman, hamkoru hamkasbini esa raqib deb tasavvur qiladi va unga qilingan yaxshilikni ham yomonlikday qabul qilib, ruhiy azob chekadi. Buning sababi uning niyati buzuqligidir. O‘zi o‘zgalarga faqat yomonlikni ravo ko‘rib, butun amalini shaxsiy manfaatiga qaratgani uchun o‘zgalarni ham o‘ziday biladi va xolis yaxshilik qilish mumkinligini qora ko‘ngliyu tor miyasiga sig‘dira olmaydi. Ezgulik nurini uning zulmat bosgan yuragi idrok etolmaydi. Mana shuning uchun Navoiy ag‘yorga xitoban:

S***unbuli zulfi agar oshuftadur ayb etmakim,*** deydi.

G‘ayr Navoiyning manzurini kamsitish uchun uning sochi to‘zg‘igan, oshufta, bu esa husn emas, qubh alomati deyishi mumkinligini hisobga olib, bu oshuftalikning shunday sababi borki, u bu parishonlikni husnga aylantiradi deydi. Bu oshuftalik bemor tashvishining natijasi bo‘lgani uchun husn hisoblanadi. Buni suvrat ahli anglamasligi mumkin. Ammo ma’no ahli soxta, tashqi husn emas, haqiqiy husn tarafdori bo‘lgani uchun husnga asosiy mezon qilib uning tashqi ko‘rinishini emas, ichki olamini va amalini oladi. Albatta, uyida yoki xizmat joyida kechiktirib bo‘lmaydigan ishlari bo‘la turib yoki kasal kishisi bo‘lsayu, unga qarash, dori-darmon qilish o‘rniga shoshilmasdan soatlab sochini tarab, o‘ziga pardoz beradigan kishidan soch tarash esiga kelmasdan fidokorlik bilan o‘z vazifasini ado etadigan kishi afzalroqdir.

Yaxshi niyat va g‘ayrat bilan ish qilayotgan kimsaning to‘zg‘igan sochi ishyoqmas dangasaning silliq sochiga nisbatan husnni to‘g‘ri tushunadigan kishiga chiroyliroq bo‘lib ko‘rinadi.

“Ayb etma” iborasining boshqa so‘z va iboralarga nisbatan mazkur baytdagi mazmuniy afzalligi mana shunda. Shakliy afzalligi esa “ayb” so‘zining “oshufta”, “yotqan” va “bemor” so‘zlariga uyg‘unligidadir. Baytdagi qolgan so‘zlar ham bir-biriga uyg‘un: sunbul, gul, nozanin. Har bir so‘z o‘z o‘rnida. Salbiy tushunchalar “oshufta”ni “sunbul”ga bog‘lash yo‘li ijobiylashtirilgan. Chunki oshuftalik sunbulga xos bo‘lsa ham sunbul go‘zal o‘simlikdir. Bu, o‘z navbatida, Navoiy manzurining sochdagi parishonlikning unga husn bo‘lib tushganini yana bir bor isbot qiladi. Baytda zulf sunbulga o‘xshatilgani uchun yuz oy yoki yana boshqa narsalarga o‘xshatilmasdan gulga, ya’ni atirgulga tashbih qilingan.

**Alibek RUSTAMOV,**
**filologiya fanlari doktori,**
**akademik**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-1046.
34751 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 20:25

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.